



SAYLOVNI KUZATISH MISSIYASI **O‘zbekiston Respublikasi – Muddatidan ilgari prezidentlik saylovi, 2023-yil 9-iyul**

DASTLABKI NATIJALAR VA XULOSALAR TO‘G‘RISIDAGI BAYONOT

DASTLABKI XULOSALAR

9-iyul kungi muddatidan ilgari prezidentlik sayloviga texnik jihatdan puxta tayyorgarlik ko‘rilgan, ammo bu saylov haqiqiy raqobat yetishmagan siyosiy muhitda bo‘lib o‘tdi. Amalga oshirilayotgan islohotlarda DIIHBning avvalgi tavsiyalariga muvofiq ba’zi ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi, biroq demokratik saylovlarni o‘tkazish uchun mustahkam huquqiy asos yaratish uchun jiddiy o‘zgarishlar talab etiladi. Markaziy saylov komissiyasi (MSK) jarayonning oshkoraligini oshirish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar ko‘rgan holda, o‘z vakolatlarini samarali amalga oshirdi, shunga qaramay, jarayonda quyi bo‘g‘in komissiyalarining mustaqilligini ham ta‘minlash zarur. Asosiy erkinliklar va saylanish huquqi cheklanganligicha qolayotgan muhitda, ro‘yxatga olingan nomzodlar saylovoldi kampaniyasini erkin olib borishlari mumkin edi. Ancha osoyishta o‘tgan saylovoldi kampaniyasi tadbirlarida saylovchilar va nomzodlar orasida ahamiyatli o‘zaro hamkorlik yetishmadi, nomzodlar muqobil siyosiy qarashlarni gapirishdan tiyildi, ijtimoiy chora-tadbirlar va yangi loyihalar joriy etilishi esa, amaldagi prezidentga ancha ustunlik berishi bilan birga partiya va davlat o‘rtasidagi chegarani mavhumlashtirdi. Muayyan cheklovlarni olib tashlash va fuqarolik jamiyatining saylov jarayonlarida to‘liq ishtirok etishini ta‘minlash uchun kelajakda muayyan islohotlar talab etiladi. Onlayn OAVda ijtimoiy masalalar muayyan darajada muhokama qilingan bo‘lsa-da, cheklovchi huquqiy qoidalar va ommaviy axborot vositalari tahririyatining mustaqilligiga aralashuvlar tahliliy materiallarning yo‘qligiga sabab bo‘ldi va saylovchilarning ongli tanlov qilish salohiyatiga salbiy ta‘sir qildi. Saylov kuni tinch o‘tdi, ammo jiddiy qoidabuzarliklarga yo‘l qo‘yildi, ovoz berish, ovozlarni sanash va yakuniy natijalarni jadvallarga kiritish jarayonlarida, aksar hollarda, muhim kafolatlarga rioya qilinmadi, bu jarayonning yaxlitligiga shubha uyg‘otdi.

2023-yil 8-mayda Prezident Shavkat Mirziyoyev turli huquq va erkinliklarni mustahkamlash va ayrim takomillashtirishlarni ta‘minlash maqsadida, keng targ‘ib qilingan konstitutsiyaviy islohotlar jarayonidan so‘ng muddatidan ilgari prezidentlik saylovini 2023-yil 9-iyulga belgiladi. Uyushmalar, yig‘ilishlar erkinligi va fikrni ifoda etish kabi asosiy erkinliklar qonun hujjatlarida va amalda haddan tashqari cheklanganligicha qolmoqda. Partiyalarni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun qo‘yilgan murakkab talablar siyosiy muhitning plyuralistik xususiyatini cheklashda davom etmoqda. Ro‘yxatga olingan barcha siyosiy partiyalar va ularning nomzodlari Prezident siyosatini ma‘qulladilar.

Prezident yagona umummilliy saylov asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ovoz berish yo‘li bilan saylanadi. Konstitutsiya va Saylov kodeksi qayta ko‘rib chiqilgan holda, huquqiy baza ancha isloh qilindi va bu jarayonda DIIHBning avvalgi tavsiyalari hisobga olingan. Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosining (DIHBB) bir qancha uzoq yillik tavsiyalari, jumladan, asosiy huquq va erkinliklarni ta‘minlashga oid tavsiyalari hamon bajarilganicha yo‘q. Umuman olganda esa, amaldagi qonunchilik demokratik saylovlarni o‘tkazish uchun mustahkam huquqiy mexanizmni ta‘minlay olmaydi.

Saylov ma‘muriyati, saylov uchun belgilangan vaqt qisqa ekanligiga qaramay, texnik tayyorgarlikni samarali olib bordi va qonunda belgilangan muddatlarga rioya qildi. Markaziy saylov komissiyasi muntazam tarzda yig‘ilishlar o‘tkazib, bu saylov jarayonlardagi saylovga oid nizolar haqida ayrim ma‘lumotlarni e‘lon qildi va bu saylov jarayonining shaffofligini ta‘minlashga xizmat qildi. Saylov komissiyalari xodimlari uchun tashkil qilingan trening mashg‘ulotlari, umumiy ma‘noda, mazmunli va

interaktiv tarzda o‘tkazildi, shunga qaramay ularda ilgari kuzatilgan noto‘g‘ri amaliyotlar va muhim jihatlar yetarli darajada ko‘rib chiqilmadi. DIHHBning uzoq yillik tavsiyasiga qaramay, saylov jarayonining turli jabhalarida davlat va mahalliy boshqaruv organlari bilan birgalikda ishlovchi mahallalarning roli quyi bo‘g‘in saylov organlarining mustaqilligi va xolisligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Yakuniy saylovchilar ro‘yxatiga 19,593,838 nafar saylovchi kiritilgan. Oxirgi konstitutsiyaviy o‘zgarishlar xalqaro standartlar va DIHHBning oldingi tavsiyalariga muvofiq, muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarning saylov huquqlariga qo‘yilgan umumiy cheklovni olib tashladi. DIHHBning uzoq yillik tavsiyalariga qaramay, saylov qonunchiligida saylov kuni qo‘shimcha ro‘yxatlarga saylovchilarni kiritish imkoniyati ko‘zda tutilgan va bunda ushbu tartibni suiiste‘mol qilishga qarshi yetarlicha kafolatlar belgilanmagan. DIHHB Saylovni kuzatish missiyasi (SKM) suhbatlashgan ba‘zi kishilar, jumladan, OSK a‘zolari saylovchilar ro‘yxati to‘g‘ri tuzilganligi borasidagi o‘z xavotirlarini bildirdilar. Saylov kodeksida saylovchilarga saylovdan oldin tuzatishlar, qo‘shimchalar va istisnolar bo‘yicha so‘rov yuborishning yetarli mexanizmlari ko‘zda tutilgan.

Saylovda kamida 35 yoshga to‘lgan fuqarolar o‘z nomzodini qo‘yish huquqiga ega. Qonunchilikda siyosiy partiyalarni ro‘yxatga olishning cheklovchi qoidalari saqlanib qolmoqda, shuningdek, nomzodlarni ro‘yxatga olish jarayonining inklyuzivligini buzgan holda, YXHTning xalqaro standartlari va majburiyatlariga ham muvofiq emas. Bu saylovda prezidentlikka to‘rt nafar nomzod ishtirok etdi va ulardan biri ayol kishi edi.

Prezidentlik saylovi sezilarli darajada osoyishta va haqiqiy siyosiy muqobil holat yetishmagan siyosiy muhitda bo‘lib o‘tdi. Ro‘yxatga olingan barcha nomzodlar saylovoldi kompaniyalarini erkin o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lishlari barobarida, saylovoldi targ‘ibot-tashviqot materiallarini tayyorlash va tarqatish, tadbirlarni tashkil etish hamda davlat mablag‘laridan foydalanishda teng huquqqa ega bo‘ldilar. Saylov kampaniyasi tinch olib borildi, kuzatilgan tadbirlar, aksariyat hollarda, majburan tashkil qilingandek ko‘rindi va unda davlat xizmatchilarining ish vaqtida ishtirok etgan holatlari ko‘p kuzatildi. Saylovoldi kampaniyasi to‘g‘risidagi tartib-qoidalar ma‘muriy resurslardan noqonuniy foydalanish va kampaniya davomida davlat mansabdor shaxslarining ishtirok etishiga qarshi ba‘zi taqiqlarni o‘z ichiga oladi, biroq davlat va mahalliy hukumat organlarining mansabdor shaxslari o‘z mansablarini suiiste‘mol qilishga yo‘l qo‘ymaslik uchun samarali kafolatlar yetishmaydi. Saylovoldi kampaniyasi davomida Prezident farmonlari bilan hujjatlashtirilgan ijtimoiy chora-tadbirlarni joriy etish, yangi loyihalar va ijtimoiy nafaqa rejalarini e‘lon qilish joriy Prezident vakolatining ortiqcha ustunligini ta‘minladi va YXHT majburiyatlariga zid bo‘lgan davlat va partiya o‘rtasidagi farqni mavhumlashtirdi.

2016-yildan boshlab xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilganligi tufayli hozirda amaldagi parlamentda faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar salmog‘i jami Parlament a‘zolarining 29,8 foizini tashkil qilmoqda. Umuman olganda, xotin-qizlar saylovni o‘tkazish jarayonida yaxshi ishtirok etishdi, biroq saylov boshqaruvining yuqori bo‘g‘inlarida va rahbarlik lavozimlarida ularning vakilligi maqtanarli emas. Ba‘zi hollarda gender masalalari tilga olingan va muhokama qilingan bo‘lsa-da, bu mavzu saylovoldi kampaniyasida muhim o‘rin tutmagan. Prezidentlikka nomzod ayolni hisobga olmaganda, xotin-qizlar saylovoldi kampaniyasida unchalik ko‘zga tashlanmadi.

Saylovoldi kampaniyasini moliyalashtirish faqat davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi. Saylovoldi kampaniyalari uchun muqobil moliyaviy manbalardan foydalanish taqiqlanadi, bu esa ilg‘or xalqaro amaliyotga ziddir. 2021-yildan boshlab qonunchilik siyosiy partiyalardan oraliq va yakuniy hisobotlarni hamda saylovoldi kampaniyalari tadbirlari uchun sarflangan mablag‘lar bo‘yicha yakuniy hisobotni taqdim etishlari shart ekanligini bu saylovdagi ijobiy jihat sifatida baholash mumkin. MSK ma‘lumotlariga ko‘ra, to‘rtala partiya ham saylovoldi kampaniyasi bo‘yicha oraliq hisobotlarni qonuniy

muddatlarda taqdim etgan, ulardan ikkitasi hisobotlarini o'z veb-saytlarida e'lon qilganligi esa, quvonarli holat. Umuman olganda, bunday moliyalashtirishda puxta hamda o'z vaqtidagi nazoratning yo'qligi va ehtimoliy huquqbuzarliklar uchun jazo choralarining mavjud emasligi saylovoldi kompaniyalarini moliyalashtirish samaradorligi va oshkoraligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Huquqiy qoidalar, xususan, tuhmat, yolg'on ma'lumot tarqatish va ekstremizm bilan bog'liq qonuniy tartiblar, xalqaro huquqqa zid tarzda, bu harakatlarni nomutanosib ravishda jinoiy javobgarlikka tortadi. Ana shu tartiblar asosida yaqindagi hibsga olish, qamoqqa olish holatlari va ular bo'yicha chiqarilgan hukmlar, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlar orqali shunday harakatlarni qilish uchun qo'llanilgan jazolar amalda ana shu erkinliklarni cheklovchi harakatlardir. Internetda ijtimoiy masalalarni muhokama qilish uchun muayyan platformalar faoliyat yuritayotgan bo'lsa-da, OAV tahririyatining mustaqilligiga aralashish va o'zini-o'zi senzura qilish yuqori siyosiy hukumatni tanqid qilishga to'sqinlik qilmoqda. Davlat ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlariga muvofiq nomzodlarga bepul e'fir vaqti va nashr uchun sahifa ajratdi. Saylovoldi kompaniyalarida matbuot xizmatlari faoliyati sust bo'lishi barobarida, amaldagi prezident yangiliklarda nomutanosib ravishda ko'proq yoritildi hamda bu uning ortiqcha ustunligini ta'minladi. Umuman olganda, OAV siyosiy muqobillar haqida jamoatchilikning tanqidiy muhokamasiga yordam bermadi, bu esa saylovchilarning ongli tanlov qilish salohiyatiga salbiy ta'sir qiladi.

Qonun shikoyatlar va murojaatlar bo'yicha barcha manfaatdor tomonlarga keng huquqiy maqom beradi va nizolarni oqilona muddatlarda hal qilishni kafolatlaydi. Prokuratura va Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, saylov bilan bog'liq hech qanday shikoyat kelib tushmagan. Oliy Sudga nomzodni ro'yxatga olish bo'yicha bir holat bo'yicha murojaat kelib tushdi va asossiz deb topildi. MSKning ma'lumotlariga ko'ra, saylov kuni unga 184 ta murojaat va shikoyat kelib tushgan. MSK shikoyat va murojaatlarning 147 tasi haqida hamda ular bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar haqida qisqacha ma'lumotlar e'lon qildi. Bu shikoyatlarning 77 tasi saylov jarayonlari xususan, saylov uchastkalari xodimlari tarkibi, faoliyati, joylashuvi bilan bog'liq bo'lib, aksariyati texnik sabablarga ko'ra rad etilgan. Lekin shikoyat va murojaatlarni saylov komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilishi shaffoflikni to'liq ta'minlamaydi, chunki avvaldan ishlab chiqilgan qarorlar bo'yicha chora ko'rish bilan cheklanib, shikoyatlar ommaviy tarzda eshitilmaydi. So'nggi paytlarda qonunchilikka kiritilgan ayrim o'zgartirishlar va ko'rilgan amaliy chora-tadbirlarga qaramay, yetarlicha kafolatlar berilmaganligi sababli sud hokimiyati mustaqilligiga hamon putur yetkazilmoqda. DIHHB SKMning ba'zi suhbatdoshlariga ko'ra, saylovga aloqador qo'zg'atilgan ishlarning kamligi jamoatchilikning sud tizimiga ishonchi yo'qligidan dalolat beradi.

Qonunda xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiyalar, mahalla qo'mitalari va ommaviy axborot vositalari vakillari saylovni kuzatishlari mumkinligi belgilangan. DIHHBning uzoq yillik tavsiyalariga qaramay va YXHT majburiyatlariga zid ravishda, qonunchilikda saylovni fuqaro sifatida kuzatish uchun tartib-qoidalar mavjud emas. MSK 797 nafar xalqaro kuzatuvchini ro'yxatga oldi. OSKlar tomonidan siyosiy partiyalar va mahallalardan 53,677 nafar kuzatuvchi akkreditatsiya qilingan. Ro'yxatga olingan kuzatuvchilar jarayonning barcha bosqichlarini kuzatish huquqiga ega. Fuqarolik jamiyati tashkilotlarini ro'yxatdan o'tkazish tartib-qoidalari, chet eldan moliyalashtirish va davlat nazoratini cheklash fuqarolik jamiyati rivojlanishiga to'siq bo'lib, ularning saylov jarayonlarida to'liq ishtirokini cheklaydi.

Umuman olganda, saylov kuni tinch o'tdi. Biroq kuzatuvchilar ko'p sonli saylov uchastkalarida ovoz berish jarayonini salbiy baholadilar, kuzatuvlarning 13 foizida ovoz berish jarayonining tashkil qilinishi yomon yoki juda yomon ekanligi kuzatildi. Jarayonga kamchiliklar, jiddiy qonunbuzarliklar, jumladan, qo'shimcha saylovchilar ro'yxatiga tegishli chora-tadbirlarsiz kiritilgan ko'p sonli saylovchilar, tegishli shaxsini tasdiqlamasdan yoki boshqalar nomidan ovoz bergan saylovchilar hamda ovoz berish maxfiyligiga ta'sir ko'rsatilgan salbiy holatlar kuzatildi. Bundan tashqari, kuzatilgan bir qator USKda

saylov byulletenlarini to‘plam shaklida qutilarga tashlanish belgilari, shuningdek, saylovchilar ro‘yxatlarida bir xil ko‘rinishdagi imzolar ko‘plab kuzatilgani DIHHB SMM tomonidan qayd etilgan. Saylov kunining yopilishi va ovoz berish jarayoniga yakun yasash 87 ta saylov uchastkasining 39 tasida muhim protsessual xato va kamchiliklar, nizolarga barham berish tartib-qoidalariga e‘tibor berilmagani sababli o‘ta darajada salbiy deb baholandi. Tashrif buyurilgan OSK deyarli yarmida hisobotlarni tuzish jarayoni shaffof emasligi sababli salbiy baholandi. Umuman olganda, ovozlarni sanash va natijalarni jadvallarga kiritish jarayonlari 1990-yildagi YXHT Kopengagen hujjatining 7.4-bandiga muvofiq ovozlar halollik bilan sanab chiqilishi va hisobot berishlarini ta‘minlashi borasidagi talablarga zid bo‘lganligi sababli, kuzatuvchilarda shubha uyg‘otdi. Kun davomida DIHHB SKM kuzatuvchilari ovoz berishda qatnashgan saylovchilar soni va rasman e‘lon qilingan saylovchilarning dastlabki ma‘lumotlari o‘rtasidagi tafovutni qayd etdilar.

DASTLABKI NATIJALAR

Dastlabki shart-sharoitlar

O‘zbekistonda prezidentlik boshqaruv tizimi amal qiladi. Prezident ijro etuvchi va qaror qabul qilish bo‘yicha ko‘plab vakolatlariga ega, qonun chiqaruvchi hokimiyatni ham tegishli tarzda Parlament bilan birgalikda amalga oshiradi, bu esa, hokimiyatlarning samarali taqsimoti bo‘yicha xavotirlarni uyg‘otadi.¹

2023-yil 8-may kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev muddatidan ilgari prezidentlik saylovlarini 2023-yil 9-iyulga belgiladi.² Bu saylovdan oldinroq, 2023-yil 30-aprelda konstitutsiyaviy referendum o‘tkazildi va uning asosida o‘zgartirilgan Konstitutsiya qabul qilindi.³ Konstitutsiyaga kiritilgan so‘nggi o‘zgarishlar prezidentga muddatidan oldin saylov o‘tkazish bo‘yicha to‘liq huquqni taqdim qiladi.⁴ Konstitutsiyaviy islohotlar jarayoni turli huquq va erkinliklarni kengaytirish, ba‘zilarini takomillashtirishni ta‘minlashga qaratilgani bilan keng targ‘ib qilindi.⁵ Konstitutsiya matnining uchdan

¹ Prezident bajarilishi majburiy bo‘lgan farmon va qarorlar imzolaydi hamda Parlament yuqori palatasi a‘zolarining ayrimlarini tayinlaydi, shuningdek, viloyat hokimlari, Bosh prokuror, Sudyalar oliy kengashi a‘zolari, shuningdek, Davlat xavfsizlik xizmati va boshqa yuqori mansabdor shaxslarni tayinlashda muhim rol o‘ynaydi. Oliy Majlis referendumlar o‘tkazishi, byudjetni qabul qilishi mumkin, shuningdek, Prezident taklifiga binoan Bosh vazirni saylash uchun mas‘uldir.

² Avvalgi Konstitutsiyaga ko‘ra, amaldagi Prezidentning vakolati 2026-yilda tugashi kerak edi. Lekin prezident Mirziyoyev yangi Konstitutsiya barcha hokimiyat tarmoqlarini isloh qilish va muvozanatni tiklashini, bu esa yangi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligini ta‘kidlab, muddatidan ilgari prezidentlik saylovlarini o‘tkazishga chaqirdi.

³ Konstitutsiya O‘zbekistonni dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida e‘lon qiladi, prezidentlik muddatini 5 yildan 7 yilgacha uzaytiradi va amaldagi Prezident uchun muddat chegarasini belgilaydi. Rasmiy natijalarga ko‘ra, bu referendumda saylovchilarning 84,5 foizi ishtirok etgan, saylovchilarning 90,2 foizi taklif qilingan o‘zgartirishlarni ma‘qulladi.

⁴ Yevropa Kengashining Qonun orqali demokratiya qurish bo‘yicha Yevropa komissiyasi (Venetsiya komissiyasi) Ozarbayjon Konstitutsiyasiga kiritilgan o‘zgartirish loyihasi bo‘yicha shunday deydi: “prezidentga muddatidan ilgari [prezidentlik] saylov(i)ni tayinlash bo‘yicha yagona ixtiyoriy huquqni taqdim qilish “demokratik standartlarga mos kelmaydi”, chunki bu “saylovlarni mamlakat rahbariyati uchun plebissitga aylantirishi va avtoritar tendentsiyalarga qonuniylikni ta‘minlashi mumkin”. [FSHXPga berilgan 25-umumiy izohning](#) 9-bandida aytilishicha, “haqiqiy davriy saylovlar qonun chiqaruvchi yoki ijro etuvchi hokimiyat vakillarining ularga berilgan tegishli vakolatlarini amalga oshirishdagi javobgarligini ta‘minlash uchun zarurdir”.

⁵ Konstitutsiyaning yangi tahririda ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarga nisbatan qo‘shimcha kafolatlar, o‘lim jazosini taqiqlash, inson huquqlarini bevosita qo‘llanilganda va unda qarama-qarshilikka duch kelgan taqdirda xalqaro shartnomalarning milliy qonunchilikdan ustun bo‘lishi ta‘minlanadi. Shuningdek, u davlatning barcha huquqiy ta‘sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunda nazarda tutilgan qonuniy maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lishi kerakligini belgilaydi.

ikki qismi qayta ko‘rib chiqildi, biroq birlashmalar,⁶ yig‘ilishlar erkinligi⁷ va so‘z erkinligi⁸ bo‘yicha asosiy huquqlar qonunchilikda va amalda haddan tashqari cheklanganligicha qolmoqda.⁹ Bundan tashqari, DIHIB SKMning bir nechta suhbatdoshlari ma‘muriy va jinoiy jazolar, hibsga olish va qamoqqa olish o‘zboshimchalik bilan amalga oshirilgani va hukumatni tanqid qiluvchi kishilarning ovozlari o‘chirishda foydalanilgan adolatsiz holatlarni qayd etdilar. Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati birlashmalari ro‘yxatdan o‘tishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda, boshqa shu kabi tashkilotlar hukumatning qat‘iy nazorati ostida bo‘lganligi sabab, ular davlatdan mustaqil ravishda chin ma‘noda faoliyat yuritishini shubha ostiga qo‘yadi.

Mamlakatdagi siyosiy vaziyat o‘zgarishsiz qolmoqda. Prezident Mirziyoyev 2021-yilgi prezidentlik saylovida ovozlarning mutlaq ko‘pchiligi – 80 foizini qo‘lga kiritib, ikkinchi muddatga saylandi va siyosiy hayotning barcha jabhalarida muhim o‘rin egalladi. 2019-yilgi parlament saylovlaridan buyon ro‘yxatga olingan besh partiyaning barchasi parlamentda o‘z vakillari bilan ishtirok etadi. Bu partiyalarning hammasi hozirgi Prezident siyosatini ochiqchasiga ma‘qullaydi. Partiyalarni ro‘yxatdan o‘tkazish talablarining murakkabligi siyosiy muhitning plyuralistik xususiyatini cheklashda davom etmoqda. O‘zbekiston Ekologik partiyasi (O‘EP) 2019-yilda davlat ro‘yxatidan o‘tgan, 2003-yildan beri boshqa partiyalar ro‘yxatga olinmagan. Siyosiy partiyalarni ro‘yxatdan o‘tkazishga bir necha bor urinishlar muvaffaqiyatsizlikka uchragan, ro‘yxatdan o‘tmagan partiyalar vakillari esa, yig‘ilishlar tashkil etish va partiyaning qo‘llab-quvvatlovchi imzolarni to‘plash jarayonlarida qo‘rqitish, ta‘qib qilish, to‘sqinlikka uchraganliklari haqida xabar berishgan.¹⁰ Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati birlashmalari ro‘yxatdan o‘tishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda, boshqa shu kabi tashkilotlar hukumatning qat‘iy

⁶ Jinoyat va ma‘muriy qonunlar ro‘yxatdan o‘tmagan uyushmalar faoliyatini taqiqlaydi va bu jazolanadi. 1999-yilda qabul qilingan “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonun NNTning faoliyati va moliyalashtirilishini tartibga soluvchi ko‘plab farmon va qarorlar bilan to‘ldirilib, xorijiy grantlar Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanishini talab qiladi. Jinoyat kodeksida ro‘yxatdan o‘tmagan uyushmalarni qonunga xilof ravishda tashkil etish va ularda faol qatnashish jinoyat deb topilib, besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. DIHIB SKMning ba‘zi suhbatdoshlari ta‘kidlashicha, qonunchilik va amaliyotdagi mavjud to‘siqlar tufayli ularni Adliya vazirligi ro‘yxatdan o‘tkazish bir necha bor rad etilgan. [Bitta holatda](#), tashkilot BMT Inson huquqlari qo‘mitasi ta‘sischining birlashish erkinligi huquqi buzilganligini aniqlaganidan keyingina ro‘yxatdan o‘tkazgan.

⁷ Miting va namoyishlar o‘tkazishning qonun hujjatlarida belgilangan tartib-qoidalarini yo‘qligiga qaramay, ma‘muriy qonun hujjatlarida qonunda belgilangan tartiblarni buzgan holda tashkil etilgan yoki o‘tkazilgan tinch yig‘ilishlar taqiqlanadi va jazolanadi. Agar bunday holat takroran sodir etilgan bo‘lsa, bu harakat jinoyat deb topiladi va uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Bundan tashqari, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda ruxsat etilmagan yig‘ilishlar, mitinglar, ko‘cha yurishlari va namoyishlar o‘tkazish uchun sharoitlar yaratganlik uchun 33 000 000 so‘mgacha (1 yevro 12 383,7 so‘mga teng) ma‘muriy jazo ko‘zda tutilgan. DIHIB va Venetsiya komissiyasining 2020-yilgi Tinch yig‘ilishlar o‘tkazish erkinligi bo‘yicha [yo‘riqnomasining](#) 36-bandida shunday deyiladi: “Yig‘ilish haqida oldindan ogohlantirmaslik yoki yig‘ilish uchun belgilangan yo‘nalish, vaqt va joy cheklovlariga rioya qilmaslik kabi jinoyatlar qamoq jazosi yoki katta jarimalar bilan jazolanmasligi zarur”.

⁸ Jinoyat kodeksining terrorizm, diniy ekstremizm, prezidentga nisbatan ommaviy haqorat yoki tuhmatga doir jinoyatlarga oid qoidalarini mujmal va ular o‘zboshimchalik bilan qo‘llanilishi mumkin.

⁹ Xalqaro standartlar ushbu huquqlarga nisbatan har qanday cheklovlar zarurligi va qonuniy maqsadlarga mutanosib bo‘lishi kerakligini belgilaydi. [FSHXPning](#) 21-moddasi, 22.2-moddalariga qarang. Shuningdek, [FSHXPga BMTning Inson huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi tomonidan 1996-yilda berilgan 25-sonli umumiy izohning](#) 4 va 27-bandlariga qarang. 1990-yildagi [YXHT Kopengagen hujjatining](#) 24-bandi inson huquqlari va asosiy erkinliklarini cheklashni taqiqlaydi, “qonunda ko‘zda tutilgan [...] va ushbu qonunning maqsadiga to‘liq mutanosib bo‘lgan holatlar bundan mustasno”.

¹⁰ 2021-yildan boshlab “Haqiqat va taraqqiyot” sotsial-demokratik partiyasi, “Xalq manfaatlari” partiyasi hamda “Haqiqat, taraqqiyot va birdamlik” demokratik partiyasi imzo to‘plash bo‘yicha rasmiy talablarga javob bermagani uchun u partiyalarga davlat ro‘yxatidan o‘tkazish arizasi rad etilgan. 2023-yil 7-iyun kuni “Haqiqat, taraqqiyot va birdamlik” demokratik partiyasi yetakchisi Xidirnazar Allaqulov hibsga olingan va o‘sha kuniyiq qo‘yib yuborilgan. Farg‘ona Ichki ishlar boshqarmasi bergan xabarga ko‘ra, X.Allaqulov ikki militsiya xodimiga tan jarohati yetkazgan va hozirda prokuratura bu ishni tergov qilmoqda. Toshkent shahar sudi 2022-yil 24-fevraldagi qarori bilan “Haqiqat, taraqqiyot va birdamlik” demokratik partiyasi faoli Vazira Egamberdiyeva o‘z uyida partiya faollari bilan ruxsat etilmagan yig‘ilish o‘tkazgani uchun 1 million 350 ming so‘m jarimaga tortdi.

nazorati ostida bo‘lganligi ularning davlatdan mustaqil ravishda chin ma’noda faoliyat yuritishiga yo‘l qo‘ymaydi.

2016-yildan boshlab xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilganligi tufayli hozirda amaldagi parlamentdagi xotin-qizlarning soni ijobiy tarzda jami 150 o‘rindan 47 taga oshdi, amaldagi Qonunchilik palatasida esa, Senatning 100 a‘zosidan 21 nafari xotin-qizlardir. Senat Raisi va Parlament Quyi palata raisi o‘rinbosari ham xotin-qizlardir. Biroq siyosiy hayotda xotin-qizlarning ishtiroki nisbatan ancha kam va gender stereotiplari saqlanib qolmoqda.¹¹ Hukumatdagi 27 vazirdan 2 nafari va Sudyalari oliy kengashining 12 nafar a‘zosidan 3 nafarigina ayollardir. Viloyat hokimlarining hammasi erkaklardir. 2023-yil 6-aprelda Senat jinsiy zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan shaxslarni huquqiy himoya qilish doirasini kengaytiruvchi ijobiy tuzatishlarni ma‘qulladi.

Saylov tizimi va huquqiy mexanizmlar

Prezident yagona umummilliy saylov asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ovoz berish yo‘li bilan saylanadi. Agar saylovning birinchi turi o‘tkazilgandan keyin nomzodlarning birortasi haqiqiy ovozlarning 50 foizidan ko‘prog‘ini ololmasa, eng ko‘p ovoz to‘plagan ikki nomzod o‘rtasida birinchi saylovdan 15 kundan keyin, lekin bir oydan kech bo‘lmagan muddatda saylovning ikkinchi turi o‘tkaziladi.¹²

Prezidentlik saylovlari, asosan, 2023-yilgi Konstitutsiya va 2019-yilgi Saylov kodeksi bilan tartibga solinadi.¹³ Mamlakat huquqiy tizimida islohotlar jarayoni amalga oshirilib, Konstitutsiya va Saylov kodeksi qayta ko‘rib chiqilmoqda. 2023-yilgi Konstitutsiya va Saylov kodeksiga kiritilgan o‘zgartirishlarda DIHHBning oldingi ayrim tavsiyalari hisobga olingan, xususan, o‘rtacha og‘ir va og‘ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tayotgan hamda muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarning saylov huquqlariga qo‘yiladigan umumiy cheklov olib tashlandi, saylov komissiyalariga a‘zolikka qabul qilish mezonlari qo‘shimcha tarzda belgilandi.¹⁴ Shunga qaramay, DIHHBning bir qancha uzoq yillik tavsiyalari, jumladan, asosiy huquq va erkinliklarni ta‘minlash, nomzodlikka qo‘yishdagi huquqlarning cheklanishi, saylov kampaniyalarini moliyalashtirishning muqobil manbalaridan foydalanish imkoniyati, fuqarolarning saylovlarni kuzatish va siyosiy partiyalarni ro‘yxatga olish erkinliklarini amalga oshirishga oid tavsiyalar hamon bajarilganicha yo‘q. Bundan tashqari, qonunchilikda ayrim mujmalliklar va kamchiliklar saqlanib qolmoqda.¹⁵ Umuman olganda esa, amaldagi qonunchilik demokratik saylovlarni o‘tkazish uchun mustahkam huquqiy mexanizmni ta‘minlay olmaydi.

¹¹ BMTDning “Gender stereotiplari va patriarxal qarashlarning gender tenglikka salbiy ta‘siri” tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, xotin-qizlarning parlamentdagi ishtiroki yaxshilanib, Qonunchilik palatasi va Senatdagi xodimlar orasidagi ulushi mos ravishda 32 va 25% ga yetgan. Biroq xotin-qizlar ishtiroki ijroiya hokimiyati organlarida (3,4%), shuningdek, rahbarlik lavozimlarida (27%) va tadbirkorlikda (25%) kam darajadagicha qolmoqda.

¹² Ro‘yxatga olingan barcha saylovchilarning 33 foizi ishtirok etishi saylovning birinchi turi uchun yetarli hisoblanadi.

¹³ Ular 1996-yildagi “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonun, 2004-yildagi “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi qonun, 1994-yildagi Jinoyat kodeksi va 1994-yildagi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, shuningdek, Prezident farmonlari, nizomlari va MSK tomonidan chiqarilgan majburiy qarorlar bilan to‘ldiriladi.

¹⁴ 2021-yilda yana bir qancha o‘zgarishlar kiritildi va qisman DIHHBning avvalgi tavsiyalariga, jumladan, saylovoldi kampaniyasini o‘tkazish tartib-taomillarini yumshatish, davlat resurslaridan noto‘g‘ri foydalanishni taqiqlash, saylovoldi kampaniyasi moliyalashtirish va saylovdagi nizolarini hal qilish bilan bog‘liq ayrim o‘zgarishlarni ham o‘z ichiga oladi.

¹⁵ Qonun hujjatlarida deputatlikka nomzodlar ko‘rsatish va ro‘yxatdan (qayta) o‘tkazishning ayrim tartiblari, shu jumladan, bir nomzodni ikki va undan ortiq partiya qo‘llab-quvvatlagan hollarda, imzolarni tekshirish tartibi, siyosiy partiyalarning muxolifatlari bo‘yicha bandlar batafsil bayon qilinmagan.

Bugungi kunda Konstitutsiyada xalqaro shartnomalarning milliy qonunchilikdan ustunligi va inson huquqlarining bevosita qo‘llanilishi belgilab qo‘yilgan bo‘lsa-da, asosiy erkinliklarni amalga oshirishni tartibga soluvchi qonunosti hujjatlari hozirgacha qayta ko‘rib chiqilmagan.¹⁶ Konstitutsiyada yig‘ilishlar erkinligi huquqi faqat qonun bilan cheklashga ruxsat beriladi, lekin yig‘ilishlar erkinligi hech qanday maxsus qonun bilan tartibga solinmaydi¹⁷ va mavjud qonunosti hujjatlarida bu harakat uchun haddan tashqari cheklovlar mavjud.¹⁸ Bu jarayonning bir qancha jihatlari qonun bilan emas, balki Prezident farmonlari va boshqa qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinishda davom etmoqda.¹⁹ Amalda qonunosti hujjatlari ustuvorligining saqlanib qolishi qonun hujjatlarining huquqiy aniqligi va undan bo‘ladigan natijalarni ta‘minlamaydi.

Saylovni boshqarish

Prezident saylovi Markaziy saylov komissiyasi (MSK), 14 ta okrug saylov komissiyasi (OSK) va 10 784 ta uchastka saylov komissiyasi (USK), shu jumladan, xorijda tashkil etilgan 59 ta uchastka saylov komissiyasi tomonidan o‘tkaziladi.²⁰ MSK doimiy faoliyat yurituvchi organ hisoblanadi; uning a‘zolari hududiy vakillik organlarining takliflari asosida Oliy Majlis tomonidan noaniq muddatga tayinlanadi.²¹ Hozirgi MSK tarkibida 21 nafar a‘zo faoliyat yuritadi. Ularning yetti nafari xotin-qizlar bo‘lsa-da, ular MSK qarorlarini qabul qilishda faol emaslar.²²

Markaziy saylov komissiyasi saylovlarni tashkil etish va o‘tkazish vakolatiga ega bo‘lishi barobarida keng vakolatlar bilan ta‘minlangan.²³ Umuman olganda, MSK muddat qisqaligiga qaramay, saylovga

¹⁶ BMT Inson huquqlari qo‘mitasining 2020-yilgi O‘zbekistonning beshinchi davriy hisobotiga oid yakuniy kuzatishlari bo‘yicha hisobotga qarang, unda “qonuniy va amalda tinch yig‘ilishlar o‘tkazish huquqining asossiz cheklanishi” yuzasidan xavotirlar bildirilgan. [O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida](#) Adliya vazirligiga qonunchilik bazasini to‘liq xatlovdan o‘tkazib, unda belgilangan huquqiy ta‘sir choralari mutanosiblik prinsipiga muvofiqlashtirish topshirig‘i berildi.

¹⁷ “Ko‘cha yurishlari, mitinglar va namoyishlar to‘g‘risida”gi qonun loyihasi Ikki raund maslahatlashuvlar o‘tkazish uchun taklif etildi. 2019-yilda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining O‘zbekistondagi loyihalari koordinatorining loyihani ko‘rib chiqish bo‘yicha so‘rovi asosida DIIHB qonun loyihasiga [huquqiy izoh](#) berdi va “Qonun loyihasi xalqaro inson huquqlari standartlariga mos kelmaydi”, “huquqlar judayam cheklangan, zamon va makonga ko‘ra, shuningdek yig‘ilishlar tashkilotchilariga nisbatan o‘ta qat‘iy va asossiz cheklovlar mavjud”.

¹⁸ [FSHXPga BMTning Inson huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi tomonidan berilgan 37-sonli umumiy izohning](#) 73-bandida shunday deyiladi: “Agar ichki qonunchilikda ruxsat berish rejimlari saqlanib qolgan bo‘lsa, ular amalda xabar berish tizimi sifatida ishlashi kerak, bunda ruxsat bermaslik uchun jiddiy sabablar yo‘q bo‘lsa, ruxsat tabiiy ravishda berilishi zarur”. [O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori](#) bilan ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga ruxsat berish zarurligi belgilangan bo‘lsa-da, yig‘ilishlar, namoyishlar, ko‘cha yurishlari va namoyishlarini o‘tkazish qat‘iyani istisno qilingan. DIIHB suhbatdoshlari mazkur qarorning ko‘cha yurishlari, miting va namoyishlarga tatbiq etilishi borasida tegishli davlat muassasalari o‘rtasida tushuncha yo‘qligini ta‘kidladi.

¹⁹ Prezidentning “Sud organlari faoliyatini moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni sudyalarning mehnatiga haq to‘lashni tartibga soladi, ommaviy tadbirlarni o‘tkazish Vazirlar Mahkamasining qarori bilan, fuqarolik jamiyati tashkilotlari faoliyatiga cheklovlar esa, Adliya vazirining qarorlari bilan tartibga solinadi.

²⁰ Jazoni ijro etish muassasalari, harbiy qismlar, kasalxonalar va boshqa sog‘liqni saqlash muassasalarida maxsus saylov uchastkalari (321 ta) tashkil etilgan.

²¹ Konstitutsiyaga kiritilgan so‘nggi tuzatishlarga ko‘ra, MSK raisi MSK tomonidan o‘z a‘zolari orasidan besh yil muddatga saylanadi va bu lavozimni ketma-ket ikki muddatdan ko‘p bo‘lmagan muddatga egallashi mumkin. MSKning amaldagi raisi 2021-yilda tayinlangan va keyinchalik rais etib saylangan.

²² Kuzatilgan davr mobaynida faqat ikkita a‘zo ayol MSK majlislarida doimiy ravishda shaxsan qatnashgan. DIIHB SKM faqat bitta ayol ishtirok etgan majlislar hamda faqat erkak a‘zolar tomonidan o‘tkazilgan majlislarini ham kuzatdi.

²³ Bu vakolatlariga nomzodlarni ro‘yxatga olish, saylovoldi kampaniyalari uchun teng imkoniyatlarni ta‘minlash (jumladan, ommaviy axborot vositalarida), saylov byulletenlarini tarqatish, saylov natijalarini tan olish va ularni haqiqiy emas, deb topish kabi vakolatlar kiradi.

tayyorgarlikni samarali boshqardi, qonunda belgilangan muddatlarga rioya qildi. U muntazam ravishda yig'ilishlar o'tkazdi va saylov jarayonining turli jihatlarini batafsil tartibga solib turdi.²⁴ Ijobiy tomoni shundaki, MSK majlislarida MSKga, shuningdek, quyi bo'g'in saylov organlariga kelib tushgan shikoyatlar va murojaatlar bo'yicha hisobotlar ham e'lon qilindi, bu esa, saylov jarayonlaridagi ochiqlikni oshiradi. MSK qarorlari va boshqa hujjatlarining aksariyati o'z vaqtida e'lon qilingan bo'lsa-da, shikoyatlar bo'yicha faqat umumiy ma'lumotlarga berib borildi.

OSK va USK vaqtinchalik organlardir. Muddatidan ilgari saylov o'tkazish uchun juda qisqa muddat tufayli saylov taqvimida 14 ta okrug saylov komissiyalarini tuzish uchun o'n kun, uchastka saylov komissiyalarini tuzish uchun ham o'n kun muddat belgilangan. Qonunchilikda mahallalar, jamoat birlashmalari va tashkilotlarning uchastka saylov komissiyasi a'zolari nomzodini ko'rsatishi nazarda tutilgan. Shu nomzodlar bo'yicha jamlanma ma'lumotlar har doim ham taqdim qilinmaganligi tufayli turli subyektlarning uchastka saylov komissiyalari tarkibidagi vakilligini baholashning amaliy imkoniyati cheklanib qoldi.²⁵ Yaqinda komissiya a'zolarining huquqiy mezonlari ro'yxati kengaytirilgan bo'lsa-da,²⁶ DIHIB SKM amalda quyi bo'g'in saylov boshqaruvida mahallalar muhim o'rinni egallashda davom etayotgani, DIHIBning avvalgi tavsiyalariga zid ravishda, bu omil saylov jarayonini boshqarishning mustaqilligi va betarafligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini kuzatdi.²⁷ 2023-yilgi Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartishlarda mahallalar mustaqilligi belgilab qo'yilganiga qaramay, amalda ular mahalliy va davlat boshqaruvi organlari bilan birgalikda ishlaydi, jumladan, moliyaviy jihatdan ham ularga bo'g'liq hisoblanadi.²⁸ Siyosiy partiyalar saylov boshqaruviga ishonch bildirgan bo'lsalar-da, DIHIB suhbatlashgan aksariyat shaxslar saylov jarayonlarini boshqarish, ayniqsa, quyi bo'g'in saylov komissiyalari va saylovchilarning ishtiroki darajasi to'g'risida berilayotgan hisobotlar yuzasidan xavotirlarini bildirdilar. DIHIB SKMning ba'zi suhbatdoshlari saylovni boshqarish organlarining mustaqilligi va xolisligi haqida izoh berishdan o'zlarini tiyishdi.

²⁴ Jumladan, OSK va USKga a'zolik mezonlari, Toshkent shahridagi ellikta saylov uchastkasida biometrik qurilmalardan foydalangan holda saylovchilarni identifikatsiya qilish, uchastka saylov komissiyalari ishini tashkil etish, saylov kunidagi tartib-qoidalar, kuzatuvchilarning huquqlari, saylov kuni videokameralardan foydalanish bilan bog'liq masalalar. MSK majlislarida OAV vakillari va xalqaro kuzatuvchilar ishtirok etdi va ular onlayn translyatsiya qilindi.

²⁵ Har bir USKda 5 dan 19 tagacha vakillar faoliyat ko'rsatadi. Har bir USKda komissiya a'zolarini tayinlash bo'yicha alohida qarorlar bo'lsagina, ma'lumotdan foydalanishga ruxsat beriladi. DIHIB SKM uzoq muddatli kuzatuvchilarining xabar berishicha, hududlarda bunday ma'lumotlarni olish, jumladan so'rovlar berilgan taqdirda ham, har doim ham imkoni bo'lmadi. [Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga \(FSHXP\) berilgan 34-umumiy izohning](#) 19-bandida ishtirokchi-davlatlardan "umumjamoat manfaatiga xizmat qiluvchi hukumat ma'lumotlarini faol ravishda ommaviy e'lon qilish"ni va "bunday ma'lumotlardan oson, tezkor, samarali va amaliy foydalanish imkoniyatini ta'minlash uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirishni" talab qiladi.

²⁶ Saylov kodeksiga 2023-yilda kiritilgan o'zgartishlarga ko'ra, Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari, shuningdek Senat a'zolari, hokim o'rinbosarlari, siyosiy partiyalar vakillari, deputatlikka nomzodlar, shuningdek o'rtacha og'ir yoki og'ir jinoyatlar uchun sudlanganligi bekor qilinmagan yoki olib tashlanmagan shaxslar endi OSK va USK a'zosi bo'lish huquqiga ega emas. Amaldagi talablar bir tashkilotning ma'lum bir USK a'zolarining yarmidan ko'pini nomzod qilib ko'rsata olmasligini ham o'z ichiga oladi. Siyosiy partiyalar hech qanday komissiya a'zolarini ko'rsatishga haqli emas.

²⁷ [Venetsiya komissiyasining 2002-yildagi Saylov masalalarida adolatli amaliyot kodeksining](#) II.3.1.b bo'limida "ma'muriy hokimiyatning siyosiy hokimiyatga ega bo'lgan shaxslardan mustaqilligi bo'yicha uzoq yillik an'analar mavjud bo'lmagan taqdirda, milliy darajadan saylov uchastkasi darajasiga qadar barcha darajadagi mustaqil, xolis saylov komissiyalari tuzilishi zarur", deb belgilangan.

²⁸ Saylov oldidan va shu davr mobaynida Prezidentning mahallalarga mablag' ajratish to'g'risida bir qancha farmonlari qabul qilindi. Masalan, 7-iyunda qabul qilingan "[2023-2024-yillarda Toshkent shahrida Shayxontohur tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va mahallalar infratuzilmasini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida](#)"ga Prezident qaroriga qarang. DIHIB SKM UMK Jizzax viloyatida mahalla yo'llari, suv ta'minoti, elektr tarmoqlarini obodonlashtirish hamda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun mahallalarga mablag' ajratilishi davom etayotgani haqida ma'lum qildi.

DIHBB SKM kuzatgan trening mashg‘ulotlari, umumiy ma’noda, mazmunli va interaktiv tashkil qilindi. Ushbu mashg‘ulotlarda, asosan, ovoz berish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklar tahlil qilindi, biroq ovozlarni sanab chiqish paytidagi qoidabuzarlik holatlari, muhim kafolatlar va tegishli huquqiy javobgarliklar masalalari ko‘tarilmadi.²⁹ MSK tomonidan saylovchilarni o‘qitishga oid turli xil materiallar tayyorlandi, ularda ovoz berish maxfiyligi va tanlash erkinligi muhimligi ta’kidlandi. Biroq DIHBB SKM uzoq muddatli kuzatuvchilari hududlardagi saylovchilar haqidagi ma’lumotlar, asosan, ishtirokni rag‘batlantirishga qaratilganligini ma’lum qildi. Xalqaro majburiyatlarga muvofiq, nogironligi bo‘lgan shaxslarning saylov jarayonlarida faolligini oshirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi.³⁰

Umuman olganda, xotin-qizlar saylovni o‘tkazish jarayonida yaxshi ishtirok etishdi, ammo saylov boshqaruvining yuqori bo‘g‘inlarida va rahbarlik lavozimlarida ularning vakilligi maqtanarli emas. MSK ma’lumotlariga ko‘ra, uchastka saylov komissiyasi a’zolarining 52,1 foizi xotin-qizlar bo‘lsa, OSK darajasida ayollar 41,4 foizni tashkil qiladi; MSK a’zolarining faqat uchdan bir qismi xotin-qizlardir. Uchastka saylov komissiyalarining qariyb 38,6 foizini ayollar boshqargan bo‘lsalar, 14 ta okrug saylov komissiyasi raislaridan faqat 1 nafari ayol kishidir.

Saylovchilarni ro‘yxatga olish

18 va undan katta yoshdagi fuqarolar ovoz berish huquqiga ega. Xalqaro standartlar va DIHBBning uzoq yillik tavsiyalariga javob tariqasida, mamlakat Konstitutsiyasiga kiritilgan so‘nggi o‘zgartirishlarga ko‘ra, muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarning saylov huquqlariga qo‘yiladigan umumiy cheklov olib tashlandi. Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirishlar qabul qilingandan keyin fuqarolarning ushbu guruhlari avtomatik ravishda saylash huquqiga ega bo‘ldilar.³¹

Saylovchilarni ro‘yxatga olish passiv bo‘lib, u doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyiga asoslanadi.³² Saylovchilarning yagona elektron ro‘yxati (SYER) bir nechta davlat idoralari va vazirliklarning ma’lumotlar bazalarini umumlashtirgan holda avtomatik tarzda tashkil qilingan.³³ SYERda ovoz beruvchilarning dastlabki ro‘yxatlari har bir ovoz berish uchastkasi bo‘yicha tuzib chiqildi. USK ovoz beruvchilar ro‘yxatini tekshirishga mas’ul edi, ular mahalliy davlat hokimiyati organlari va mahallalardan ma’lumotlarni yig‘ish bilan shug‘ullanishdi hamda ovoz beruvchilarning haqiqiy manzillarini uyma-uy yurib, tekshirdilar. DIHBB SKM uzoq muddatli kuzatuvchilari (UMK) tashrif buyurgan aksariyat USK binolarida saylovchilar ro‘yxati ommaviy tanishib chiqish uchun osib qo‘yilganiga guvoh bo‘lishdi va bu qonunchilik talabi hisoblanadi. Fuqarolarga saylovchilarning ma’lumotlarini onlayn, shuningdek, saylov uchastkalariga borib shaxsan tekshirish imkoniyati yaratildi, MSK xabariga ko‘ra, 113,000 nafar saylovchi ovoz berish uchun o‘z manzilini o‘zgartirgan bo‘lsalar, USKga ovoz berish bilan bog‘liq shikoyat kelib tushmagan. MSK ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning

²⁹ Treninglardan so‘ng DIHBB SKM uchrashgan bir nechta USK a’zolari saylov qutilarini ochishdan oldin yarashtirish tartib-qoidalari va xavfsizlik choralari haqida bilishmagan.

³⁰ Bu saylov uchastkalariga bemalol kirishini ta’minlash uchun jihozlar, jumladan, Brayl shrifti, nogironlar aravachasidagi saylovchilar uchun kattaroq ovoz berish kabinolari, imo-ishora tili va katta shriftli axborot materiallari bilan ta’minlash, shuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxslarni saylov komissiyalari tarkibiga kiritish kabi choralarni o‘z ichiga oladi.

³¹ MSK ma’lumotlariga ko‘ra, avval saylov huquqidan mahrum bo‘lgan 6608 nafar aqliy va psixologik nuqsoni bo‘lgan shaxslar ro‘yxatga olingan. Bundan tashqari, konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirishlardan so‘ng 10 702 nafar huquqdan mahrum qilingan mahkumlarga ham ovoz berish huquqi taqdim qilindi.

³² Chet elda ovoz berish, shu jumladan saylovchilarning arizalari asosida ro‘yxatga olish jarayoni ancha faol kechmoqda. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, hozirda ikki millionga yaqin fuqaro xorijda yashaydi.

³³ Bir qator davlat organlari, jumladan Adliya vazirligining Davlat personalizatsiya markazi, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi va Tashqi ishlar vazirligi.

13-may holatiga saylovchilarning dastlabki soni 22,118,261 nafarni tashkil etdi. Ro'yxatga olingan saylovchilarning yakuniy soni esa 19,593,838 nafar deb e'lon qilindi.³⁴

Saylovchilar ro'yxatlari saylov kuniga besh kun qolganida yakuniga yetkazildi. DIHIB SKM suhbatlashgan ba'zi kishilar, jumladan, OSK a'zolari saylovchilar ro'yxati to'g'ri tuzilganligi borasidagi o'z xavotirlarini bildirdilar, chunki odatda saylov kuni qo'shimcha ro'yxatlarga ko'p sonli saylovchilar kiritilishi mumkin. DIHIBning uzoq yillik tavsiyalariga qaramay, saylov qonunchiligida saylov kuni qo'shimcha ro'yxatlarga saylovchilarni kiritish imkoniyati ko'zda tutilgan va bunda ushbu tartibni ehtimoliy suiiste'mol qilishga qarshi yetarlicha kafolatlar belgilanmagan³⁵.

Toshkent shahridagi ellikta saylov uchastkasi birinchi marta 2023-yilgi Referendumda sinovdan o'tkazilgan saylovchilarni identifikatsiyalashning elektron uskunasi bilan ta'minlandi. Ushbu uskunalarda saylovchilarning ID-guvohnomalari yoki biometrik pasportlari skanerdan o'tkazilib, u yoki bu saylovchi ushbu saylov uchastkasida ro'yxatga olingani yoki yo'qligi hamda videotasvirdagi saylovchi yuzi uning elektron tizimdagi rasmi bilan solishtirilgan holda tekshiriladi³⁶. Saylovchilarni identifikatsiya qilish texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha saylovchilarga batafsil ma'lumot berilmagan.

Nomzodlarni va partiyalarni ro'yxatga olish

Adliya vazirligida saylov e'lon qilinishidan kamida to'rt oy oldin ro'yxatga olingan partiyalargina prezidentlikka nomzodini ko'rsatish huquqiga ega. Muddatidan ilgari prezidentlik saylovini o'tkazish muddati nomzod ko'rsatish uchun biron bir yangi tashkilotni ro'yxatdan o'tkazishga ruxsat bermaydi³⁷. DIHIB tomonidan murakkab va o'zboshimchalik bilan qo'llanilishi mumkin deb baholangan "Siyosiy partiyalarni ro'yxatga olish to'g'risida"gi qonun hujjati o'zgarishsiz qolmoqda.³⁸

³⁴ MSK xabariga ko'ra, mamlakatni uch oy oldin tark etgan fuqarolar saylovchilarning yakuniy ro'yxatidan olib tashlangan.

³⁵ Xususan, USK bayonnomalarida qo'shimcha saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan saylovchilar alohida hisobga olinmaydi va MSK qo'shimcha saylovchilar ro'yxati bo'yicha mamlakat bo'yicha ma'lumotlarni e'lon qilmaydi. [Venetsiya komissiyasining Saylov masalalarida adolatli amaliyot kodeksining](#) I.1.2- bo'limida "qo'shimcha ro'yxat o'sha ro'yxat yakuniy e'lon qilingan kundan boshlab yashash joyini o'zgartirgan yoki qonunda belgilangan saylov yoshiga yetgan shaxslarga ovoz berish vositasi bo'lishi mumkin" va "ro'yxatga olinmagan saylovchini ro'yxatga olish harakati uchun sud nazorati yoki sud tartibida amalga oshiriladigan ma'muriy chora ko'rish joriy qilinishi zarur; ro'yxatga olish saylov kuni saylov uchastkasida o'tkazilmasligi kerak", deya belgilangan. Shuningdek, "*Saylov kuni*" bo'limiga ham qarang.

³⁶ Tizimda saylovchining "ovoz berdi", deb belgilab qo'yilganligini tekshirish maqsadida jihozlar saylovchilar ro'yxatlarining elektron nusxasi bo'lgan kompyuterga ulandi.

³⁷ Saylov kodeksiga 2023-yil may oyida kiritilgan o'zgarishlarga muvofiq, muddatidan oldingi prezidentlik saylovi u belgilangan paytdan boshlab ikki oy muddatda o'tkazilishi kerak.

³⁸ [DIHIB va Venetsiya komissiyasining Siyosiy partiyalarni tartibga solish bo'yicha yo'riqnomasining](#) 41-bandida shunday deyilgan: "tegishli umumiy va maxsus qonun hujjatlarida amalda boshqalar bilan erkin birlashish va boshqalar bilan siyosiy partiyalar tuzish huquqini amalga oshirish imkonini beruvchi zarur mexanizmlarni ko'zda tutishni ta'minlash davlatning mas'uliyati hisoblanadi". O'sha hujjatning 178-bandda aytilishicha, "qonun hujjatlari ro'yxatga olish uchun haddan tashqari qiyin talablar yoki minimal qo'llab-quvvatlashni ifodalash orqali partiyalar sonini cheklashdan tiyilishi zarur. Bunday cheklovlar nafaqat siyosiy pliyuralizmning erkin funksiyasini qisqartiradi, balki ularni hukumatdagilarga yoqmaydigan salbiy fikrlarni bildiruvchi partiyalar yoki nomzodlarning ovozi o'chirish uchun osonlikcha manipulyatsiya qilish mumkin". [FSHXPga 31-sonli umumiy izohning](#) 14-bandida aytilishicha, "Paktdagi huquqlarni amalga oshirish uchun choralar ko'rish talabi so'zsiz qabul qilinishi lozim va u darhol kuchga kiradi. Ushbu majburiyatga rioya qilmaslik davlat ichidagi siyosiy, ijtimoiy, madaniy yoki iqtisodiy sabablarga ko'ra oqlanishi mumkin emas.

Saylovda kamida 35 yoshga to‘lgan fuqarolar o‘z nomzodini qo‘yish huquqiga ega.³⁹ Oxirgi konstitutsiyaviy islohotlar prezidentlikka nomzodlar mamlakat hududida kamida 10 yil muqim yashagan bo‘lishi kerakligi haqidagi talabni o‘z kuchida qoldirdi. Nomzodlar o‘zbek tilini mukammal bilishlari shart bo‘lsa-da, DIHIBning avvalgi tavsiyasiga qaramay, qonunchilikda tilni bilish darajasini baholashning aniq mezonlari mavjud emas.⁴⁰ Qonunchilik o‘z nomzodini prezidentlikka yakka tartibda qo‘ygan shaxslarning saylovda ishtirok etishiga ruxsat bermaydi. Saylovda qatnashish huquqiga nisbatan bunday haddan tashqari cheklovlar xalqaro standartlar va YXHT majburiyatlariga zid bo‘lib, nomzodlarni ro‘yxatga olish jarayonining inklyuzivligiga putur yetkazadi.⁴¹

15-may kuni MSK ro‘yxatga olingan barcha beshta siyosiy partiyaning nomzod ko‘rsatish huquqini tasdiqladi. MSK ma‘lumotlariga ko‘ra, nomzod kamida 221,183 nafar saylovchining imzosi bilan qo‘llab-quvvatlanishi zarur. DIHIB SKMning ba‘zi suhbatdoshlari jamoatchilik imzolarini to‘plash unchalik ham sezilmaganiga o‘z xavotirini bildirishgan.⁴² Siyosiy partiyalar imzolarni asosan o‘z a‘zolaridan to‘plaganliklarini ma‘lum qilishdi.⁴³ To‘rtta siyosiy partiya MSKga o‘z nomzodlarini ko‘rsatdi.⁴⁴ MSK tartib-qoidalariga ko‘ra, har bir nomzod uchun to‘plangan imzolarning kamida 15 foizi tekshirilishi zarur, bunda namunalar qanday shakllantirilishi kerakligi ko‘rsatilmagan. Markaziy saylov komissiyasi DIHIB SKMga imzolar uch kun ichida tekshirilgani, ma‘lumotlar faqat shubhali tuyulgan hollardagina tekshirib ko‘rilgani va bu topshiriqni bajarish uchun tekshirish komissiyalariga vaqt yetarli bo‘lganligini ma‘lum qilgan. Prezidentlikka to‘rt nafar nomzodning barchasi 6-iyun kuni ro‘yxatga olingan.⁴⁵ Nomzodlardan biri ayol kishidir.

Saylov kampaniyalari muhiti

Saylovoldi kampaniyasi rasman 7-iyundan boshlandi va 7-iyulda yakuniga yetkazildi. Prezidentlikka nomzodlar saylovchilar bilan kichik va o‘rta ko‘lamdagi uchrashuvlar tashkil qildilar va bu

³⁹ Qasddan jinoyat sodir etganlikda ayblangan, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar, diniy tashkilotlarning diniy yo‘nalishdagi xodimlari saylovda o‘z nomzodini qo‘yish huquqiga ega emaslar.

⁴⁰ [FSHXPga 25-sonli umumiy izoh](#)ning 4-bandida “25-modda bilan muhofaza qilinadigan huquqlarni amalga oshirish uchun qo‘llaniladigan har qanday shartlar xolis va asosli mezonlarga asoslanishi zarur” deyiladi. Til talabini qanday baholash bo‘yicha hech qanday tartib-qoida yo‘q va Markaziy saylov komissiyasi DIHIB SKMga nomzodlarning til bilishida shubha tug‘ilmasa, baholash amalga oshirilmasligi haqida ma‘lum qildi.

⁴¹ [FSHXPga 25-sonli umumiy izoh](#)ning 15-bandida “saylovda qatnashish huquqiga boshqacha tarzda ega bo‘lgan shaxslar ta‘lim, yashash joyi yoki kelib chiqishi kabi asossiz yoki kamsituvchi talablar yoki siyosiy mansubligi sababli bu siyosiy jarayondan chetlashtirilmasligi zarur”ligini ta‘kidlanadi. [YXHTning 1990-yilgi Kopengagen hujjati](#) 7.5-bandida fuqarolarga “yakka tartibda yoki siyosiy partiyalar yoki tashkilotlarning vakillari sifatida, hech qanday kamsitishsiz siyosiy yoki davlat lavozimlarida erkin faoliyat ko‘rsatishlariga” ruxsat berilishi talab etiladi. [YXHTning 1990-yilgi Kopengagen hujjati](#) 3-bandida aytilishicha, turli ustuvorlik va dasturlarga ega bo‘lgan turli siyosiy partiyalarning faoliyati bilan ta‘minlangan siyosiy plyuralizm demokratiyaning to‘g‘ri ishlashi uchun muhim ahamiyatga ega. [DIHIB va Venetsiya komissiyasining Siyosiy partiyalarni tartibga solish bo‘yicha yo‘riqnomasi](#)ning 47-bandida esa: “siyosiy plyuralizm samarali demokratik boshqaruvni ta‘minlash va fuqarolarga ular qanday boshqarilishini tanlashda haqiqiy imkoniyatni ta‘minlash uchun muhim ahamiyatga ega” ekanligi e‘tirof etiladi.

⁴² MSK taqvimida imzo to‘plash uchun 17 kun ajratilgan.

⁴³ Siyosiy partiyalar tomonidan DIHIB SKMga taqdim etilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi qariyb 570 000 a‘zoga, O‘zbekiston Ekologik partiyasi 485 000 ga yaqin, O‘zXDP 565 000 ga yaqin va O‘zLiDeP 1 269 998 a‘zoga ega. MSK ma‘lumotlariga ko‘ra, imzo to‘plash va tekshirish bilan bog‘liq barcha ishlar tegishli tartib-qoidalarga muvofiq amalga oshirilgan va Markaziy saylov komissiyasi DIHIB SKMga imzolar to‘plash holatlari aks etgan videomateriallar va topshirilgan imzolar namunalarini taqdim qildi.

⁴⁴ Amaldagi prezident nomzodi dastlab ikki siyosiy partiya tomonidan ko‘rsatilgan va keyinchalik O‘zbekiston Liberal demokratik partiyasi (O‘zLiDeP) nomzodi sifatida ro‘yxatga olingan.

⁴⁵ Prezidentlikka ko‘rsatilgan to‘rt nafar nomzod: O‘zbekiston Ekologik partiyasidan (EP) – Abdushukur Xamzaev, O‘zbekiston Liberal demokratik partiyasidan (O‘zLiDeP) – Shavkat Mirziyoev, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan (O‘zXDP) – Ulug‘bek Inoyatov va O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan (ASDP) – Robaxon Maxmudova

uchrashuvlar asosan bino ichida o'tkazildi.⁴⁶ Ro'yxatga olingan barcha nomzodlar saylovoldi kampaniyalarini erkin o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lishlari barobarida, saylovoldi targ'ibot-tashviqot materiallarini tayyorlash va tarqatish, tadbirlarni tashkil etish hamda davlat mablag'laridan foydalanishda teng huquqqa ega bo'ldilar. Prezidentlik saylovi sezilarli darajada osoyishta va haqiqiy siyosiy muqobil holat yetishmagan siyosiy muhitda bo'lib o'tdi. Ro'yxatga olingan nomzodlarning hech biri amaldagi prezidentni ochiq tanqid qilmagan yoki unga jiddiy e'tiroz bildirmagan.⁴⁷ Ba'zi partiyalar bu kampaniyadan o'z a'zolarini saylovda faol ishtirok etish va o'z maqomlarini mustahkamlash uchun foydalangan. Lekin saylovdagi siyosiy ishtirok unchalik faol bo'lmadi va saylovdan norozi bo'lganlarning fikrlari asosiy ommaviy munozaralardan chetlashtirildi.

Qonunchilik bazasi nomzodlarga saylovoldi kampaniyasini o'tkazishda teng imkoniyatlar yaratadi. Biroq prezident shaxsining alohida "himoyasi va daxlsizligi" Konstitutsiya bilan ta'minlangan. Saylovoldi kampaniyasi to'g'risidagi tartib-qoidalar ma'muriy resurslardan noqonuniy foydalanish va kampaniya davomida davlat mansabdor shaxslarining ishtirok etishiga qarshi ba'zi taqiqlarni o'z ichiga oladi, ammo davlat va mahalliy hukumat organlarining mansabdor shaxslari o'z mansablarini suiiste'mol qilishiga yo'l qo'ymaslik uchun samarali kafolatlar mavjud emas. Amaldagi prezident turli ijtimoiy choralarni joriy qildi va ular e'lon qilinishi bilan tegishli Prezident farmonlari orqali qonuniy tarzda mustahkamlab qo'ydi.⁴⁸ Shuningdek, saylov kampaniyasi davrida keng ko'lamlı loyihalar va turli ijtimoiy imtiyozlar bo'yicha amalga oshirilayotgan rejalar haqida ham e'lon qilindi.⁴⁹ Bu holatlar 1990-yildagi Kopengagen hujjatining 5.4-bandiga zid ravishda, davlat va partiya o'rtasidagi farqni mavhumlashtirish bilan birga amaldagi prezidentga katta ustunlik taqdim etdi.⁵⁰ DIHIB SKM kuzatuvchilari saylovoldi kampaniyasi tadbirlari uyushtirilgan holda o'tkazilgani va ularda ishtirok etish uchun odamlar atay chaqirilgandek tuyulganini qayd etdi.⁵¹ DIHIB SKM bir necha holatlarda

⁴⁶ DIHIB SKM tomonidan kuzatilgan 42 ta saylovoldi kampaniyasi tadbirlarining barchasi o'zbek tilida o'tkazilgan, faqat bittasida rus va o'zbek tillaridan foydalanilgan. 44 nafar asosiy ma'ruzachilardan 11 nafari ayol kishi bo'lgan

⁴⁷ Namangan va Toshkent viloyatida O'zXDP nomzodi Ulug'bek Inoyatovning saylovoldi kampaniyalari tadbirlarida targ'ibot chaqirig'i prezident Mirziyoevni ochiqdan-ochiq qo'llab-quvvatlashga qaratildi. Saylov kampaniyasida haqiqiy raqobatning yo'qligi DIHIB SKM kuzatgan barcha tadbirlarda, shu jumladan nomzodning ishonchli vakillari o'rtasidagi teledebatlarda boshqa ishtirokchilar bilan tanqidiy munosabatlarning yo'qligi bilan ham ta'kidlandi.

⁴⁸ Prezident tomonidan 1-iyunda fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish maqsadida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi; Prezident 12-iyun kuni Qoraqalpog'istonda soliq imtiyozlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga kiritilgan o'zgartishlarni tasdiqladi; 14-iyunda esa Prezident qarori bilan mol-mulk va yer solig'i bo'yicha qarzdorlik undirilib, soliq qarzi, penya va jarimalarni undirish bo'yicha sud jarayonlari tugatildi. [DIHIB va Venetsiya komissiyasining 2016-yildagi "Saylov jarayonlarida ma'muriy resurslardan noto'g'ri foydalanishning oldini olish va ularga chora ko'rish bo'yicha qo'shma yo'riqnomasi"ning II. B. 1.1-bandida](#) "huquqiy mexanizmlar davlat hokimiyati organlarining saylovoldi kampaniyalari maqsadida rasmiy ommaviy tadbirlarni o'tkazish orqali o'z lavozimidan nohaq foydalanishni taqiqlashning samarali mexanizmlarini ta'minlash zarur"ligi belgilangan.

⁴⁹ 13-iyul kuni Prezident Xorazm viloyatida avtomobilsozlik, to'qimachilik, kimyo, yashil energetika va qurilish sanoatida umumiy qiymati 10 milliard AQSH dollari bo'lgan 2500 ta loyihani amalga oshirishini e'lon qildi. 23-iyul kuni Prezident Qashqadaryoda 1000 ga yaqin maktabni modernizatsiya qilish, 37 ta poliklinikalar va 95 ta oilaviy tibbiyot muassasalarini ishga tushirish barobarida maktabgacha ta'lim sohasiga 114 million AQSH dollari miqdorida mablag' ajratishni ma'lum qildi; 20-iyul kuni Buxoroda amaldagi prezident yangi tibbiyot va farmatsevtika markazlarining mavjud rejalarini bo'yicha saylovoldi kampaniyasini olib bordi.

⁵⁰ [YXHTning 1990-yilgi Kopengagen hujjati](#) 5.4-bandi "davlat va siyosiy partiyalar o'rtasidagi farqlar aniq ajratilishi"ni talab qiladi.

⁵¹ Masalan, DIHIB SKM quyidagi holatlarni kuzatdi: Toshkent viloyatida viloyat Kengashi rahbari bilan mahallalar vakillari ishtirokida tashkil etilgan, Ulug'bek Inoyatovning asosiy ma'ruzachi sifatida ishtirok etgan tadbir; Samarqandda Abdushukur Xamzaevni qo'llab-quvvatlash maqsadida o'qituvchilarni jalb qilgan holda tashkillashtirilgan tadbir; Surxondaryoda Shavkat Mirziyoyevni qo'llab-quvvatlashga bag'ishlangan, tashkilotchilar yig'ilganlarga savollar berib, javoblari qarsaklar ostida o'tkazilgan tadbir; Samarqand va Buxoroda ham amaldagi prezidentni taklifi qilgan holda atay tadbirlar tashkil etilgan holatlar.

saylovoldi kampaniyasi tadbirlarida davlat xizmatchilarining ish vaqtida ishtirok etganliklarini kuzatgan.⁵²

Nomzodlarning saylovoldi kampaniyalaridagi chiqishlari suv resurslarini boshqarish va atrof-muhit, iqtisodiyot, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, qonun ustuvorligi va qonunchilikni takomillashtirish bilan bog‘liq mavzularga qaratilgan. Ba‘zi hollarda gender masalalari tilga olingan va muhokama qilingan bo‘lsa-da, bu mavzu saylovoldi kampaniyasida muhim o‘rin tutmagan. Saylovoldi kampaniyasi internetda juda sust bo‘ldi va nomzodlar ijtimoiy tarmoq va boshqa internet foydalanuvchilarining savollariga deyarli javob bermadilar.⁵³ Ijtimoiy tarmoqlarda, asosan, ijtimoiy muammolar va quyi darajadagi korrupsiyaga oid turli fikrlar bildirilgan bo‘lsa-da, qonunchilikda ijtimoiy tarmoqlardagi kontentga ko‘ra jinoiy javobgarlikka tortish bo‘yicha tartiblar mavjud. Bu esa, DIHIB SKMning ayrim suhbatdoshlari fikricha, o‘zini-o‘zi senzuralashning ommalashishiga sabab bo‘ladi.⁵⁴

Saylov kampaniyalarini moliyalashtirish

Saylovoldi kampaniyalarini moliyalashtirish Saylov kodeksi va 2004-yildagi “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi qonun, shuningdek, MSK tartib-qoidalarini bilan tartibga solinadi.⁵⁵ Saylovoldi kampaniyasini moliyalashtirish faqat davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi va faqat nomzod ko‘rsatgan siyosiy partiyalarga ajratiladi.⁵⁶ Saylovoldi kampaniyalari uchun muqobil moliyaviy manbalardan foydalanish taqiqlanadi, bu esa ilg‘or xalqaro amaliyotga ziddir.⁵⁷ Mazkur saylovlarni o‘tkazish uchun MSK saylov maqsadlarida jami 19,655 milliard so‘m ajratdi va har bir partiyaga 4,9 milliard so‘mdan mablag‘ o‘tkazib berildi.⁵⁸

2021-yildan boshlab qonunchilik MSKga o‘z nomzodini ko‘rsatgan siyosiy partiyalar saylov kunigacha MSK tomonidan tasdiqlangan namunaga asosan oraliq va yakuniy hisobotlarni hamda saylovoldi kampaniyalari tadbirlari uchun sarflangan mablag‘lar bo‘yicha yakuniy hisobotni taqdim etishlari shart

⁵² Namangan shahridagi mahallalarda Ulug‘bek Inoyatov o‘tkazgan tadbirda o‘qituvchilar, shifokorlar va hamshiralarning ishtiroki ta‘minlandi; Samarqandda Shavkat Mirziyoyevni qo‘llab-quvvatlashga bag‘ishlangan tadbirda davlat xizmatchilari ish vaqtida qatnashdi; Andijonda Ulug‘bek Inoyatovni qo‘llab-quvvatlashga bag‘ishlangan tadbirda asosan tibbiyot xodimlari qatnashdi; Farg‘ona tibbiyot institutida Abdushukur Xamzaevni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadbirda institut xodimlari ishtirokchilar ro‘yxatiga imzo chekishdi.

⁵³ DIHIB SKM ijtimoiy tarmoqlarda 27 ta akkauntni, jumladan nomzodlar, partiyalar va taniqli blogerlar va faollar tomonidan boshqariladigan akkauntlarni kuzatdi.

⁵⁴ OAV [xabarlariga ko‘ra](#), 8-may kuni Oliy sud Telegram guruhida diniy qo‘shiq (nashida) tarqatgan fuqaroning 3 yilga ozodlikdan mahrum etilganini ma‘lum qilgan.

⁵⁵ MSK tartib-qoidalarida hisobot berish muddatlari va hisobot namunalari ko‘rsatib o‘tiladi, shaxsiy saylovoldi xayriya mablag‘larini qaytarishni talab qiladi, shuningdek, partiyalarga saylov bilan bog‘liq oldindan xarajatlar qilish imkonini beradi, faqat bu holatda davlat bu xarajatlarni keyin shu partiya to‘lab beradi.

⁵⁶ Saylovoldi kampaniyalarini bevosita va bilvosita davlat tomonidan moliyalashtirish qonunda ham, amalda ham nazarda tutilgan, saylovoldi kampaniyasi tadbirlarini o‘tkazish uchun davlat va o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan jihozlangan binolar bepul taqdim etilishi belgilangan.

⁵⁷ [Siyosiy partiyalarni tartibga solish bo‘yicha yo‘riqnomaning 204](#) va 209-bandlarida quyidagicha ta‘kidlanadi: “Siyosiy partiyalarni [moliyalashtirish] siyosatda ishtirok etishning bir shakli hisoblanadi va partiyalar xususiy moliyaviy xayriyalarni topishga imkon qadar harakat qilishi zarur” va “barcha kishilar o‘zi tanlagan siyosiy partiyani qo‘llab-quvvatlashini moliyaviy va naqd pul mablag‘lari orqali erkin ifoda etish huquqiga ega bo‘lishlari lozim”. 233-bandda aytilishicha, “subsidiyalar [...] yagona daromad manbai bo‘lmashligi yoki davlat yordamiga haddan tashqari tobeklik uchun sharoit yaratmasligi zarur”.

⁵⁸ Ajratilgan mablag‘ 2021-yildagi Prezident sayloviga nisbatan oshgan, o‘shanda saylovoldi kampaniyalarini moliyalashtirishga 15,5 milliard so‘m yo‘naltirilgan edi. DIHIB SKMning siyosiy partiyalarda faoliyat ko‘rsatuvchi suhbatdoshlari saylovoldi kampaniyasi byudjeti tasdiqlanishidan oldin ular bilan maslahatlashilganini bildirishdi.

ekanligini bu saylovdagi ijobiy jihat sifatida baholash mumkin.⁵⁹ MSK ma'lumotlariga ko'ra, to'rtala partiya ham qonunda belgilangan muddatlarda oraliq hisobotlarni taqdim etgan va ularning ikkitasi bu hisobotlarini o'z veb-saytlarida e'lon qilganlar. Qonunda saylovoldi kampaniyalarini moliyalashtirish qoidalariga rioya qilmaslik uchun faqat umumiy javobgarlik nazarda tutilgan, lekin ushbu ma'muriy huquqbuzarlikning alohida turlari sanab o'tilmagan. MSK ma'lumotlariga ko'ra, hisobot berish muddatlariga rioya qilmaslik MSK qarorlarini bajarmaslik sifatida ma'muriy javobgarlikka tortilishga sabab bo'ladi. Siyosiy partiyalar saylovoldi kampaniyalarini moliyalashtirish to'g'risidagi hisobotlarni saylov yakunlari e'lon qilingan kundan boshlab bir oy muddatda o'z internet sahifalarida va bosma ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladilar. Umuman olganda, bunday moliyalashtirishda puxta hamda o'z vaqtidagi nazoratning yo'qligi va ehtimoliy huquqbuzarliklar uchun jazo choralarining yo'qligi saylovoldi kampaniyalarini moliyalashtirish samaradorligi va oshkoraligiga putur yetkazadi.

Ommaviy axborot vositalari

Konstitutsiyada so'z erkinligi va axborot olishning asosiy kafolatlari ta'minlangan.⁶⁰ 2020-yilda Jinoyat kodeksidan tuhmat uchun qamoq jazosi olib tashlanganligi quvonarli holat bo'lsa-da, tuhmat, haqorat va yolg'on ma'lumot tarqatish hamon jinoyat hisoblanadi, qolaversa, prezidentga ommaviy tuhmat va uni haqorat qilish 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.⁶¹ Jinoyat kodeksida terrorism, diniy ekstremizm, separatizm, ekstremistik materiallarni saqlash va tarqatish, jamoat tartibini buzishga urinishlar bo'yicha mazmunan keng va mujmal qoidalar, majburiy xalqaro huquq me'yorlariga zid ravishda, so'z erkinligini yanada nomutanosib ravishda cheklaydi.⁶² Ana shu tartiblar asosida yaqindagi hibsga olish, qamoqqa olish holatlari va ular bo'yicha chiqarilgan hukmlar amalda ana shu erkinliklarni cheklovchi harakatlardir.⁶³

Veb-saytlar yoki boshqa ommaviy "axborot resurslari" egalari, shu jumladan blogerlar uchinchi tomon kontentining qonunga muvofiqligini va o'z resurslarida joylashtirilgan ma'lumotlarning haqqoniyligini nazorat qilishlari shart. Qonun xalqaro standartlarga zid ravishda, onlayn kontentni noqonuniy deb

⁵⁹ Oraliq hisobot saylov kuniga besh kun qolganda, yakuniy hisobot esa saylov natijalari e'lon qilingan kundan boshlab 20 kun ichida taqdim etilishi zarur. Oraliq hisobotga internet va ijtimoiy tarmoqlardagi kampaniya xarajatlari ham kiritilishi kerak.

⁶⁰ Ammo FSHXPning 19.3-moddasida ko'zda tutilgan ruxsat etilgan asosli cheklovlarning to'liq ro'yxatiga qo'shimcha ravishda, Konstitutsiya "mavjud konstitutsiyaviy tuzum", shuningdek, "qonun bo'yicha himoya qilinadigan biror davlat yoki boshqa sir bo'lgan holatlar"ga asosan ham cheklovlarga ruxsat beradi.

⁶¹ FSHXPga BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi tomonidan 2011-yilda berilgan 34-sonli umumiy izohning 39-bandiga qarang. Qonunda tuhmat uchun og'irlashtiruvchi holatlarda 165 000 000 so'mgacha miqdorda o'ta yuqori miqdordagi jarima va uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan. Bundan tashqari, 2021-yilgi tuzatishlarga ko'ra, ushbu jazo telekommunikatsiya tarmoqlari va internet, jumladan, onlayn ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda Prezidentga tuhmat qilish va uni omma oldida haqoratlash holatlari uchun ham amal qiladigan bo'ldi.

⁶² Bundan tashqari, "diniy mazmundagi materiallar"ni ishlab chiqish, mamlakatga olib kirish va tarqatish diniy masalalar bo'yicha davlat eksperti tomonidan majburiy ekspertizadan o'tkazilishini talab qiladi, bu esa oldindan qilinadigan senzura hisoblanadi.

⁶³ 2023-yil 13-aprelda Mirobod tuman sudi bloger Shohida Salomovanning ruhiy kasalliklar shifoxonasida majburiy davolanish muddatini uzaytirdi. Jinoyat kodeksining 139 va 140-moddalari bilan boshqa blogerni haqoratlash va unga tuhmat qilishda ayblanib, 2022-yil 18-dekabrda hibsga olinganidan keyin sud tomonidan Shohida Salomovaga psixiatrik ekspertiza tayinlangan. OAV [xabarlariga](#) ko'ra (mamlakatda "Ozodlik radiosi" dan foydalanish cheklangan), bu hibsga olish uning prezident va uning yaqinlarini korrupsiya va urug'-aymoqchilikda ayblashi ortidan sodir bo'lgan. Shuningdek, u majburan ko'chirilayotgan shaxslarga bepul yuridik yordam ko'rsatgan. 2023-yil 31-may kuni Nurota tuman sudi uning ijtimoiy tarmoqdagi sahifasida diniy mazmundagi kontentga xayrixohlik ko'rsatib ("layk" bosib), ijtimoiy xavfsizlik va jamoat tartibiga tahdid soluvchi diniy ekstremizm g'oyalari o'z ichiga olgan materiallarni internet tarmog'idan foydalangan holda saqlagan va tarqatganlikda aybdor deb topdi. Jazoni yengillashtiruvchi holatlar tufayli unga uch yil ozodlikni cheklash, soat 22:00 dan 06:00 gacha yashash joyini tark etmaslik va internetdan foydalanishni taqiqlash bilan jazosi tayinlandi.

topish uchun haddan tashqari keng va yetarlicha aniq bo'lmagan asoslarni ko'rsatib o'tadi.⁶⁴ Qonun talablariga rioya qilmaslik to'g'risida ogohlantirishdan keyin veb-saytlarni filtrlash va bloklash sud ruxsatisiz amalga oshiriladi, lekin uning ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.⁶⁵ DIHIB SKMning bir qator suhbatdoshlarining fikricha, huquqiy cheklovlar, ularning monitoringi va tahririyat mustaqil faoliyatiga aralashish jurnalistlar va blogerlar o'rtasida keng tarqalgan o'zini-o'zi senzuralashga sabab bo'luvchi bosimga olib keladi. Onlayn va ijtimoiy tarmoqlar ijtimoiy muammolarni muhokama qilish uchun muayyan platforma bo'lib xizmat qilsa-da, yuqori siyosiy hukumatni tanqid qilish sezilarli darajada cheklanganligicha qolmoqda.

Mamlakatda ko'plab ommaviy axborot vositalari faoliyat ko'rsatadi.⁶⁶ Toshkentda joylashgan internet OAV shahar va yoshlar uchun asosiy axborot manbasi sifatida xizmat qilganiga qaramay, davlat televideniyesi hamon hududlarda sezilarli ta'sirga ega. Blogerlar OAV sohasining muhim elementini tashkil qiladi. Tijorat OAV o'sib borayotgan, ammo cheklangan reklama bozorida davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ko'plab ommaviy axborot vositalari bilan raqobatlashadi.⁶⁷ Kamdan kam OAV o'zini moddiy jihatdan qoplay oladi. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunga ko'ra OAV ta'sis fondining 30 foizdan ortig'i xorijlik ta'sischi bo'lishi taqiqlanadi, mahalliy ommaviy axborot vositalariga esa chet eldan mablag' olish taqiqlanadi.

Qonunchilik nomzodlarga davlatga tegishli milliy va mintaqaviy teleradiokompaniyalar hamda gazetalarda bepul e'fir vaqti va nashr uchun sahifa olish huquqini beradi.⁶⁸ MSK qaroriga ko'ra, barcha OAV nomzodlarga oid saylov bo'yicha yangiliklarni teng miqyosda yoritishi shart.⁶⁹ Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) OAVning talablarga muvofiqligini nazorat qiladi va MSKga, ommaviy bo'lmasa-da, muntazam ravishda hisobot beradi. MSK ma'lumotlariga ko'ra, OAVda yoritilgan xabarlar bo'yicha hech qanday qonunbuzarliklar kuzatilmagan va shikoyatlar kelib

⁶⁴ "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun axborotni cheklaydi, xususan, "jamiyatga, davlatga, davlat ramzlariga hurmatsizlikni namoyon etuvchi, shu jumladan beodoblik bilan ifodalangan axborotni tarqatish" va "ommaviy tartibsizliklarga, fuqarolarga nisbatan zo'ravonlik qilishga, shuningdek belgilangan tartibni buzgan holda o'tkaziladigan yig'ilishlar, mitinglarda, ko'cha yurishlarida va namoyishlarda ishtirok etishga da'vat qilish, shuningdek mazkur noqonuniy harakatlarni muvofiqlashtirish"ni taqiqlaydi. FSHXPning 19.3-moddasida cheklovlar "qonunda ko'zda tutilgan bo'lishi" kerakligi nazarda tutilgan, ya'ni ular shaxsga o'z xulq-atvorini mos ravishda tartibga solish imkonini beradigan darajada aniqlik bilan taqdim qilinishi kerakligini belgilaydi. Bundan tashqari, ular faqat "boshqalarning huquqlari yoki obro'-e'tiborini hurmat qilish" yoki "milliy xavfsizlik yoki jamoat tartibini yoki jamoat salomatligi yoki axloqini himoya qilish" kabi asoslardan biri uchun qo'llanilishi mumkin hamda ular zaruriyat va mutanosiblikning qat'iy talablarga muvofiq bo'lishi kerak.

⁶⁵ Birlashgan Millatlar Tashkilotining fikr va so'z erkinligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining OAV erkinligi bo'yicha vakili, Amerika davlatlari tashkilotining (OAS) so'z erkinligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi hamda Inson va xalqlar huquqlari bo'yicha Afrika xartiyasining (ACHPR) so'z erkinligi hamda axborotdan foydalanish erkinligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi tomonidan 2011-yilda birgalikda tayyorlangan "[So'z erkinligi va Internet bo'yicha qo'shma deklaratsiyasi](#)"ning 2.a va "b" bandlariga qarang.

⁶⁶ Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) ma'lumotlariga muvofiq, O'zbekistonda jami 736 ta davlat OAV va 1180 ta tijorat OAV ro'yxatga olingan. DIHIB SKM suhbatdoshlari OAVni ro'yxatdan o'tkazish jarayoni u qadar murakkab emasligini e'tirof etishdi.

⁶⁷ 12 ta milliy, shuningdek, 14 ta hududiy teleradiokompaniya va 4 ta radiostansiya Milliy teleradiokompaniya (MTRK) tarkibiga kiradi. MTRK Bosh direktori Prezident bilan kelishilgan holda hukumat tomonidan tayinlanadi.

⁶⁸ Saylovoldi kampaniyasining birinchi haftasida to'rt nafar nomzodga 4 ta milliy davlat telekanalida mos ravishda 90 daqiqa, ikkinchi haftadan beshinchi haftagacha esa mos ravishda 30 daqiqa bepul e'fir vaqti beriladi. Oxirgi haftaga partiyalararo debatlar rejalashtirilgan. Hududdiy davlat telekanallaridagi bepul e'fir vaqtining umumiy miqdori har bir stansiya va nomzod uchun 100 daqiqani tashkil etadi. Qolaversa, nomzodlarga davlat gazetalarida ham nashr joyi ajratiladi.

⁶⁹ Markaziy saylov komissiyasi DIHIB SKMga MSKning bu boradagi qarori ommaviy axborot vositalariga yangiliklarni teng miqdorda yoritish majburiyatini yuklamasligini ma'lum qildi.

tushmagan. DIIHB SKM OAV monitoringi natijalariga ko‘ra, davlat ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlariga muvofiq nomzodlarga bepul efir vaqti taqdim etgan.⁷⁰

Davlatga tegishli “O‘zbekiston” va “O‘zbekiston24” telekanallarida yoritilgan saylovga oid yangiliklarda amaldagi Prezident, mos ravishda, jami yoritilgan ma’lumotlarning 34 va 37 foizida namoyish qilingan bo‘lsa, Ulug‘bek Inoyatovga, Abdushukur Xamzaev va Robaxon Maxmudovalardagi bu ko‘rsatkichlar, mos ravishda 22, 24, 20 foiz va 21, 22 va 20 foizni tashkil etdi. Bundan, amaldagi Prezidentga ortiqcha ustunlik berilganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Qolaversa, Prezident o‘zining joriy maqomidagi faoliyati bo‘yicha ham OAVda keng yoritildi.⁷¹ “My5” va “Sevimli” tijorat telekanallari saylov kampaniyalarini o‘z yangiliklarida yoritmadi va faqat amaldagi Prezidentga oid yangiliklarni efirga berdi, “UzReport TV”da esa amaldagi Prezident saylovoldi kampaniyalari yoritilgan cheklangan jami efir vaqtining 93 foizida yoritildi. Tanlab olingan ommaviy axborot vositalarining deyarli hech birida nomzodlar haqida salbiy ohangdagi ma’lumotlar kuzatilmagan, bu haqiqiy raqobatning yetishmasligi, shuningdek, OAVning jamoatchilik sohasida tanqidiy munozaraga yordam bera olmasligidan dalolat beradi. Nomzodlarning ishonchli vakillari bilan oldindan yozib olingan ikkita debati davlat televideniyesi orqali namoyish etildi. Bunda siyosiy partiyalar o‘z platformalarini taqdim etish imkoniga ega bo‘lsalar-da, bu debatlarining formati qarama-qarshi tortishuvlar va debatdan keyin bo‘ladigan savol-javoblar bo‘lishiga yo‘l qo‘ymadi, natijada nomzodlarning vakillari va saylovchilar o‘rtasida bevosita suhbat va munozara kuzatilmadi.

Shikoyatlar va murojaatlar

Qonun shikoyatlar va murojaatlar bo‘yicha barcha manfaatdor tomonlarga keng huquqiy maqom beradi.⁷² Saylov ma’muriyati saylov bilan bog‘liq har qanday shikoyatlar bo‘yicha tegishli vakolatlariga ega, saylov komissiyalarining xatti-harakatlari va qarorlari ustidan faqat ma’muriy sudlarga berilishi kerak bo‘lgan shikoyatlar bundan mustasno.⁷³ MSK qarorlari, shu jumladan saylov natijalari yuzasidan chiqargan qarorlari ustidan Oliy sudga shikoyat qilinishi mumkin. Saylov bilan bog‘liq nizolarni ko‘rib chiqish muddatlari ilg‘or xalqaro tajribaga mos keladi.⁷⁴ Bu borada, shikoyatchilar shikoyat berganlik

⁷⁰ 12-iyun kuni DIIHB SKM “O‘zbekiston” va “O‘zbekiston24” davlat telekanallari, shuningdek, “MY5”, “Sevimli” va “UzReport” tijorat telekanallari va *Daryo.uz*, *Gazeta.uz*, *Kun.uz*, *Podrobno.uz* va *Qalampir.uz* kabi beshta Internet OAV bo‘yicha o‘z monitoringini boshladi.

⁷¹ Yangiliklarda prezidentning joriy maqomiga ko‘ra yoritilishini hisobga olsak, amaldagi prezident “O‘zbekiston” va “O‘zbekiston24” kanallarida yoritilgan saylov kampaniyasiga oid barcha yangiliklarning mos ravishda 55 va 53 foizida ko‘rsatilgan bo‘lsa, qolgan nomzodlar har ikki telekanalda mos ravishda 15, 17 va 14 foiz hamda 15, 16 va 15 foizida namoyish qilingan. “O‘zbekiston” telekanalidagi yangiliklarda saylovoldi kampaniyasini yoritishda amaldagi prezidentning nomzod sifatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatilgan efir vaqti jami nomzodlarga berilgan efir vaqtining 63 foiziga to‘g‘ri kelsa, boshqa nomzodlar bo‘yicha bu ko‘rsatkich, mos ravishda, 15, 12 va 10 foizini tashkil qilgan.

⁷² Saylov komissiyalariga har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs murojaat qilishi mumkin. Saylov komissiyalarining qarorlari ustidan nomzodni ko‘rsatgan siyosiy partiyalar, nomzodlarning o‘zlari, nomzodning ishonchli vakillari, kuzatuvchilar va saylovchilar sudga shikoyat qilishlari mumkin.

⁷³ Saylov kodeksida saylov komissiyasining harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyati aniq belgilanmagan bo‘lsa-da, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonunda va MSK qarorida arizalarni qabul qilish va ko‘rib chiqishni noqonuniy rad etish ustidan shikoyat qilish mumkinligi belgilangan. Bir qator hollarda MSK saylov jarayonlari bilan bog‘liq murojaatlar qabul qilingan kundan boshlab uch kundan ortiq muddat o‘tgach yozma ravishda javob bergan va aynan shu muddat yuqorida aytib o‘tilgan qonunda ko‘rsatib o‘tilgan.

⁷⁴ Saylovni boshqarish bo‘yicha qarorlar, shu jumladan yakuniy natijalar bo‘yicha qarorlar ustidan ular qabul qilingandan keyin besh kun ichida sudga shikoyat qilinishi mumkin va ular uch kunlik muddat ichida hal qilinishi, agar saylov kuniga olti kun qolganida taqdim etilgan bo‘lsa, darhol hal qilinishi zarur. Saylovchilar ro‘yxatidagi xato yoki noaniqliklarni har qanday fuqaro ko‘rsatishi mumkin va ular tegishli USK tomonidan 24 soat ichida ko‘rib chiqilishi va qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

uchun davlat boji to'lashlari kerak bo'ladi, bu esa, xususan, yuridik shaxslar uchun qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi.⁷⁵

2023-yil 10-maydan boshlab MSK kelib tushgan murojaat va shikoyatlar bo'yicha qisqacha hisobot berishni boshlaganini ijobiy holat sifatida ta'kidlash mumkin. Biroq shikoyat va murojaatlarning saylov komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilishida shaffoflik to'liq ta'minlanmaydi, chunki ularda avvaldan ishlab chiqilgan qarorlar bo'yicha ovoz berish bilan cheklanib, shikoyatlar ochiq majlislarda ko'rib chiqilmaydi.⁷⁶ MSK ma'lumotlariga ko'ra, fuqarolardan 184 ga yaqin murojaatlar olingan bo'lsa, yuridik shaxslar va siyosiy partiyalardan birorta ham murojaat kelib tushmagan.⁷⁷ MSK shikoyat va murojaatlarning 147 tasi haqida hamda ular bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar haqida qisqacha ma'lumotlar e'lon qildi. Bu shikoyatlarning 77 tasi saylov jarayonlari xususan, saylov uchastkalari xodimlari tarkibi, faoliyati, joylashuvi bilan bog'liq bo'lib, aksariyati texnik sabablarga ko'ra rad etilgan.⁷⁸ MSK tomonidan so'rovlar, saylov bilan bog'liq shikoyatlarga javob berish va onlayn rejimda huquqiy maslahatlar berish uchun bepul qo'ng'iroqlar markazi (call-markaz) tashkil etildi. 8-iyul holatiga ko'ra ularga 432 ta qo'ng'iroq kelib tushgan, ularda, jumladan, saylov uchastkalarining joylashuvi haqidagi so'rovlar va USK tarkibiga oid shikoyatlar berilgan.⁷⁹

Oliy sud ma'lumotlariga ko'ra, ushbu saylov bilan bog'liq bitta shikoyat kelib tushgan va u rad etilgan.⁸⁰ Bosh prokuratura va Ichki ishlar vazirligining DIHIB SKMga ma'lum qilishicha, ularga saylov bilan bog'liq hech qanday shikoyat kelib tushmagan, shuningdek, hech qanday rasmiy ish (*ex officio*) qo'zg'atilmagan.

So'nggi paytlarda qonunchilikka kiritilgan ba'zi o'zgarishlar va amalga oshirilgan muayyan amaliy chora-tadbirlarga qaramay,⁸¹ qonunchilikda va amalda sud hokimiyatiga yetarlicha kafolatlar berilmaganligi sababli ushbu hokimiyatning mustaqilligiga putur yetmoqda.⁸² DIHIB SKMning ba'zi suhbatdoshlari ta'kidlashicha, sud hokimiyati mustaqilligining yetishmasligi unga jamoatchilikning

⁷⁵ Jismoniy shaxslar uchun murojaatlari uchun yig'im bazaviy hisoblash miqdorining bir baravariga –330 000 so'mga teng bo'lsa, yuridik shaxslar uchun bu yig'im bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari – 3 300 000 so'mga teng.

⁷⁶ MSKning ochiq majlislarda qabul qilingan qarorlariga faqat hisobot davrida kelib tushgan murojaat va shikoyatlarning qisqacha sharhi hamda ularga nisbatan ko'rilgan chora-tadbirlar ilova qilinadi xolos.

⁷⁷ Murojaat qilingan holatlarda MSK qonunda belgilangan uch kunlik muddatga rioya qilgan, biroq Saylov kodeksi va "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunda belgilangan muddatlarning bir vaqtda qo'llanilishi ayrim hollarda saylov nizolarining o'z vaqtida hal etilishiga ta'sir ko'rsatgan.

⁷⁸ Qolganlari MSK vakolatiga taalluqli bo'lmagan murojaatlar edi.

⁷⁹ USK tarkibidagi huquqbuzarliklar to'g'risida vakolatli saylov komissiyalariga uchta xabar yuborildi, ulardan biri ijobiy hal qilindi.

⁸⁰ Murojaat qilgan shaxs MSKning prezidentlikka nomzodlardan birining ro'yxatga olinishi to'g'risidagi qaroriga e'tiroz bildirgan. Oliy sud DIHIB SKMga bu qaror e'lon qilinmasligini ma'lum qildi. Oliy sud ma'lumotlariga ko'ra, 2019-2022-yillarda sudlar tomonidan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va mahalliy Kengashlar raislari saylovi bilan bog'liq 450 dan ortiq ish ko'rilgan bo'lsa, 2019-yilgi parlament sayloviga doir bitta ish ko'rib chiqilgan. Shu davrda prezidentlik sayloviga doir shikoyatlar kelib tushmagan.

⁸¹ 2021-yilda "Sudlar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi, yaqin yillarda Sudyalar oliy kengashi tuzildi, sudlar xizmatlaridan foydalanishni osonlashtirish maqsadida bir qancha elektron portallar ishga tushirildi.

⁸² Prezident sud hokimiyatini shakllantirishga o'zining keng ta'sir ko'rsatish vakolatini saqlab qolmoqda, jumladan, Sudyalar oliy kengashi (SOK) a'zolarining aksariyati, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari raislari va rais o'rinbosarlarini tayinlash vakolatlari, SOK tavsiyasiga binoan Oliy sud raisi va rais o'rinbosarlari, SOK raisi, shuningdek Konstitutsiyaviy sud sudyalari nomzodlarini tayinlash vakolatlari aynan Prezidentga berilgan. BMTning sud hokimiyati mustaqilligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi mamlakatga tashrifi bo'yicha [hisobotida](#) sudyalarning institutsional va shaxsiy mustaqilligiga putur yetayotgani hamda "Kengashning tarkibi va funksiyalariga oid qoidalar xalqaro standartlarga to'liq mos kelmasligi va yetarli darajada ta'minlanmaganligi, odil sudlov va sudyalik faoliyatidagi jarayonlarni tashqi siyosiy bosimdan izolyatsiya qilishni kafolatlay olmayotgani" haqidagi haqidagi xavotirini bildirgan. Shuningdek [YXHTning 1990-yilgi Kopengagen hujjati](#) 5.12-bandi, [YXHTning 1991-yilgi Moskva hujjati](#) va [BMTning 1985-yilgi Sud hokimiyati mustaqilligining asosiy prinsiplari kabi hujjatlarga](#) qarang.

ishonchini yanada pasaytirishi barobarida, asosiy erkinliklarning poymol etilishi va saylovga taalluqli ishlar sonini kamayishiga sabab bo‘lmoqda. Saylovda chin raqobatning yo‘qligi sababli ham, sudlarda saylovlar bilan bog‘liq nizoli holatlar kam qayd etilgan.

Etnik ozchilik vakillarining ishtiroki

Konstitutsiyada O‘zbekiston ko‘pmillatli davlat ekanligi, unda barcha fuqarolar millati, elati va tilidan qat’i nazar, teng huquqlarga ega ekanligi belgilab qo‘yilgan. “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonunda milliy ruhdagi partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko‘rsatishi taqiqlanadi. Mamlakat aholisining asosiy qismi etnik o‘zbeklar bo‘lib, rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, etnik ozchiliklar butun mamlakat aholisining 16,3 foizni tashkil qiladi.⁸³ O‘zbek tili rasmiy davlat tili bo‘lib, qonunga ko‘ra, davlat boshqa etnik ozchilik vakillari tillarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi shart.

MSK ma’lumotlariga ko‘ra, saylov byulletenlarining 95,1 foizi o‘zbek tilida, ayrim saylov okruglarida esa qoraqalpoq (2,4 foiz) va rus (2,5 foiz) tillarida chop etilgan. Boshqa tillardagi saylov byulletenlari okrug saylov komissiyalari tomonidan so‘ralmagan. Siyosiy partiyalar DIHHB SKMga rus va qoraqalpoq tillarida ham saylov kampaniyasi materiallarini chop etib, tarqatilgani haqida ma’lumot berdilar. Saylov kampaniyalari davomida etnik ozchilik vakillari masalasi ko‘tarilmadi va DIHHB SKM ham millatchilik bilan bog‘liq biror muammo yuzaga kelganini kuzatmadi. DIHHB SKM kuzatgan saylov kampaniyasi tadbirlarining aksariyati o‘zbek tilida bo‘ldi.

Fuqarolar va xalqaro kuzatuvchilar

DIHHBning uzoq yillik tavsiyalariga va YXHT majburiyatlariga zid bo‘lishiga qaramay, qonunchilikda fuqarolarning saylovlarni kuzatishlari bo‘yicha tartib-qoidalar mavjud emas. Faqat xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiyalar, mahalla qo‘mitalari kuzatuvchilari, ommaviy axborot vositalari vakillari saylovlarda kuzatuvchi sifatida qatnashish huquqiga ega. Xalqaro kuzatuvchilar MSK tomonidan, qolganlari esa OSK tomonidan akkreditatsiyadan o‘tkaziladi. Bugungi kunga qadar MSK 797 nafar xalqaro kuzatuvchini ro‘yxatga oldi. OSK siyosiy partiyalardan va mahalla qo‘mitalaridan 53,677 nafar kuzatuvchini akkreditatsiyadan o‘tkazdi. DIHHB SKMning ba’zi suhbatdoshlari fuqarolik jamiyati tashkilotlarini ro‘yxatdan o‘tkazish tartib-qoidalari va chet eldan moliyalashtirishdagi cheklovlarni fuqarolik jamiyatining rivojlanishi hamda ularning saylov jarayonlarida to‘liq ishtirok etishi yo‘lidagi asosiy to‘siqlari sifatida e’tirof etdilar. Xususan, davlat hamkorini xorijiy mablag‘lardan foydalanishda u yoki bu tartibga amal qilishini talab qilish birlashish erkinligiga ta’sir qiluvchi faoliyat uchun zarur bo‘lgan resurslarni qidirish, ta’minlash va ulardan foydalanishda mustaqillikka ega bo‘lish salohiyatini cheklaydi.⁸⁴

⁸³ Boshqa muhim etnik guruhlariga, jumladan, tojiklar, qozoqlar, ruslar, qoraqalpoqlar, tatarlar va turkmanlar kiradi. Oxirgi rasmiy aholini ro‘yxatga olish 1989-yilda o‘tkazilgan va etnik ozchilik vakillari haqidagi ma’lumotlar Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan 2017-yilda yangilangan. 2023-yilda aholini ro‘yxatga yangidan olish rejalashtirilgan.

⁸⁴ DIHHB bilan uchrashgan ba’zi NNT vakillari davlat hamkorining xorijiy moliyalashtirishga birlashtirib qo‘yilishi ularning donorlarini xavotirga solayotganini ta’kidlaydi. [BMTning Tinch yig‘ilishlar o‘tkazish erkinligi huquqlari bo‘yicha maxsus ma’ruzachisining 2023-yilgi ma’ruzasining](#) 20-bandiga qarang, unda “birlashmalarning mahalliy, xorijiy va xalqaro manbalardan moliyalashtirish va boshqa resurslardan foydalanish imkoniyati birlashmalar erkinligi huquqining ajralmas qismidir. Xalqaro huquqqa ko‘ra, muammoli cheklovlar, jumladan, moliyaviy mablag‘lardan foydalanishni bevosita taqiqlash; nodavlat notijorat tashkilotlaridan moliyalashtirishdan oldin hukumat ruxsatini olishlarini talab qilish; markazlashtirilgan davlat jamg‘armasiga mablag‘larni o‘tkazishni talab qilish; chet eldan moliyalashtirilgan nodavlat notijorat tashkilotlarining inson huquqlari yoki inson huquqlarini himoya qilish faoliyati bilan shug‘ullanishini taqiqlash yoki cheklash”, deya ta’kidlangan.

Saylov kuni

Muddatidan oldin ovoz berish 28-iyundan 5-iyulgacha davom etdi.⁸⁵ Umuman olganda, saylov kuni tinch o'tdi. SKM kuzatuvchilari o'zlari tashrif buyurgan 95 ta saylov uchastkasidan 89 tasida ochilishni ijobiy baholadi. Aksariyat saylov uchastkalari o'z vaqtida yoki qisqa kechikish bilan ochildi va bu borada tartiblarga rioya qilindi. Shu bilan birga, ochilish vaqtidagi 17 ta holatda saylov uchastkasiga aloqador bo'lmagan shaxslar, asosan, mahalliy mansabdor shaxslar hozir bo'lishgan, 4 holatda esa, ular uchastka saylov komissiyalari ishiga aralashgan yoki ularga rahbarlik qilgan. Kun davomida kuzatilgan saylov uchastkalarida uchastka saylov komissiyasi a'zolarining yarmidan ko'pi (55 foiz) xotin-qizlar edi.

Ovoz berish jarayonlarini boshqarish kuzatilgan 933 ta saylov uchastkasining 13 foizida salbiy baholangan. Bu yuqori ko'rsatkich kuzatilgan kamchiliklardan dalolat beradi. Kuzatuvlarning 28 foizida saylovchilar ro'yxatidagi o'xshash imzolar va 36 holatda saylov qutilariga byulletenlar dasta qilib tashlanganligi kabi jiddiy qoidabuzarliklar kuzatilgan.⁸⁶ Bundan tashqari, DIHIB SKM saylovchilar uchastka saylov komissiyalarining 28 foizida tegishli tekshiruvsiz qo'shimcha saylovchilar ro'yxatiga kiritilganini kuzatgan, bu esa saylovchilar ro'yxatlarining to'g'riligini ta'minlash va bir necha marta ovoz berishning oldini olish uchun kafolatlarni jiddiy tarzda buzgan.⁸⁷ Boshqa qoidabuzarliklar uchastka saylov komissiyasi a'zolari tomonidan tartib-qoidalarga rioya qilmaslik bilan bog'liq. Xususan, kuzatilgan uchastka saylov komissiyalarining 6 foizida saylovchilarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari tekshirilmagan, bunday hujjatlari bo'lmagan saylovchilarga esa, 6% kuzatuvlarda saylov byulletenlarini to'ldirishga ruxsat berilgan, qolaversa, 4% holatda saylovchilar byulleten olishdan oldin saylovchilar ro'yxatini imzolamaganlar.⁸⁸

Saylov uchastkalarining joylashuvi deyarli barcha saylov uchastkalarida ovoz berishni o'tkazish uchun mos deb baholangan bo'lsa-da, kuzatuvlarning 11 foizida ovoz berish maxfiyligi talabi buzilgan, saylov byulletenlari har doim ham yashirin tarzda belgilanmagan (15%).⁸⁹ Bundan tashqari, kuzatilgan saylov uchastkalarining uch foizida guruh bo'lib ovoz berish, ikki foizida bir necha marta ovoz berish va uch foizida ishonchli shaxs orqali ovoz berish holatlari kuzatilgan. Kuzatuvlarning 7 foizida targ'ibot-tashviqot materiallarini taqdim qilish holatlari ham qayd etilgan. DIHIB SKM kuzatuvchilari tashrif buyurilgan saylov uchastkalarining 3 foizida ovoz berish tartib-qoidalarini saylovchilarga tushuntirilmagan va saylov uchastkalarining besh foizida saylovchilar ro'yxati bilan tanishish imkoni berilmagan.

Tashrif buyurilgan deyarli barcha saylov uchastkalarida partiya vakillari, mahalla qo'mitalarining akkreditatsiyadan o'tgan vakillari hozir bo'lib, jarayonning shaffofligini ta'minlashga o'z hissalarini qo'shdilar. Biroq kuzatuvchilar tashrif buyurgan saylov uchastkalarining 10 foizida ruxsat etilmagan shaxslar borligini ham qayd etdilar. DIHIB SKM kuzatuvchilari partiya vakillari, mahalla qo'mitasi vakillari va boshqa ruxsatsiz shaxslarning ovoz berish jarayoniga nomaqbul aralashuvi bilan bog'liq 27 ta holat haqida xabar berdilar.

⁸⁵ MSK ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda muddatidan oldin ovoz berganlar soni 634 584 nafar va xorijdagi elchixonalarda esa, bu raqam 180 729 nafarni tashkil etdi.

⁸⁶ Bundan tashqari, SKMga talabalarni ovoz berishga safarbar qilish uchun davlat xizmatchilariga bosim o'tkazilgani haqida ishonchli xabarlar kelib tushgan.

⁸⁷ Kuzatuvlarning 10 foizida USK ushbu tekshiruvni o'tkazish uchun elektron ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniga ega bo'lmagan.

⁸⁸ Bundan tashqari, biometrik ro'yxatga olish tizimi o'rnatilgan ayrim saylov uchastkalarida saylovchilarning qog'ozdagi ro'yxatidan umuman foydalanilmagan. SKM kuzatuvchilari saylov uchastkalarida rasmiy hisoblamyadigan blankalarga (saylovchilarning ism-shariflari qo'l bilan yozilgan) saylovchilar ro'yxati tuzilganligi holatlari haqida xabar berishdi.

⁸⁹ Kameralar o'rnatilgan saylov uchastkalarida kuzatuvlarning 13 foizida kamera ovoz berish maxfiyligi shartini buzadigan tarzda joylashtirilganligi qayd etildi.

Turli toifadagi nogironlarning saylovda ovoz berishlarini osonlashtirish bo‘yicha ijobiy chora-tadbirlar ko‘rilganiga qaramay, kuzatilayotgan saylov uchastkalarining 21 foizida jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning saylov uchastkasiga mustaqil kirish imkoniyati ta‘minlanmagan, kuzatilgan saylov uchastkalarining 18 foizi byulletenlar uchun Brayl alifbosi trafaretlari kabi zarur materillar bilan jihozlanmagan.

Ichki ishlar vazirligi saylov kuni qonunbuzarliklar kuzatilmaganini ma‘lum qilgan va Bosh prokuratura esa qo‘ng‘iroqlar markaziga (call-markaziga) kun davomida 5 so‘rov kelib tushgan bo‘lsa-da, ularning hech biri shikoyat sifatida ko‘rib chiqilmagan. MSK kelib tushgan shikoyatlar soni haqida e‘lon qilmadi va hech qanday saylovga qonunchiligiga zid holatlar kuzatilmaganligini ma‘lum qildi

Kuzatilayotgan saylov uchastkalarining aksariyati o‘z vaqtida yopilgan. Saylov uchastkalarini yopish va ovozlarni sanash jarayonlarining aksariyati yuqori darajada salbiy deb baholandi, xususan, 87 saylov uchastkasidan 39 tasi jiddiy protsessual xatolar va kamchiliklar tufayli yomon yoki juda yomon deb baholandi. Kuzatilayotgan saylov uchastkalarining yarmidan ko‘pida ovozlarni sanab chiqish tartib-qoidalariga rioya qilinmagan. Xususan, saylov qutilarini ochishgacha bo‘lgan ba‘zi muhim yarashuv bosqichlari amalga oshirilmadi, bu esa ovozlarni sanash jarayonining xolisligiga shubha tug‘dirdi.⁹⁰ 22 holatda saylov byulletenlarining haqiqiyliigi belgilangan tartibda aniqlanmagan, 36 holatda byulletenlar soni to‘g‘ri hisoblanmagan. DIIHB SKM sanoq paytida 12 ta holatda to‘plam holdagi, jumladan, bir-biriga qo‘shib, buklangan holdagi byulletenlarini qutilarga solib qo‘yish holatlarini kuzatdi. Kuzatilgan ovozlar sanalgan 30 ta holatda uchastka saylov komissiyalari natijalar bayonnomasini to‘ldirishda qiyinchiliklarga duch keldi va SKM 10 ta holatda bayonnomalar oldindan imzolanganligini va tegishli ravishda 10 va 15 ta holatda protokollar yoki saylovchilar ro‘yxatidagi yozuvlarni ataylab qalbakilashtirish faktlari mavjudligini ta‘kidladi. Ba‘zi hollarda, ovozlarni sanash jarayonining barcha bosqichlari ham kuzatuvchilarga ko‘rsatilmadi.⁹¹ Umuman olganda, ovozlarni sanash jarayoni YXHTning 1990-yilgi Kopengagen hujjatining 7.4-bandiga muvofiq, saylov byulletenlari to‘g‘ri sanalganligi va ular haqidagi bevosita hisobot berilishi yuzasidan jiddiy xavotir uyg‘otdi.⁹² Bu esa saylov jarayonlari bo‘yicha yangi islohotlar qilish va saylov komissiyalari a‘zolarining malakasini oshirish zarurligini yana bir bor ta‘kidlaydi.

Qonunchilikda uchastka saylov komissiyasi bayonnomalarini uchastka saylov komissiyasi binosi tashqarisiga osib qo‘yish nazarda tutiladi va 77 ta kuzatuvdan 20 tasida uchastka saylov komissiyasi bayonnomalari e‘lon taxtasiga yopishtirib qo‘yilmagan. Ushbu choralar na saylov natijalarining yaxlitligini ta‘minlaydi, na ushbu protokollarni o‘zaro tekshirish imkoniyatini beradi. DIIHBning uzoq yillik tavsiyalariga zid tarzda, MSK saylov uchastkalari kesimidagi natijalarni e‘lon qilmaydi.

DIIHB SKM tomonidan kuzatilgan saylovlarga yakun yasash, ya‘ni ma‘lumotlarni jadvallarga kiritish bosqichida shaffoflik yetishmadi, bu esa kuzatuvni samarali olib borishga salbiy ta‘sir qildi. Xususan, 6 ta holatda hozir bo‘lganlarning hammasi ham saylov jarayonining bu yakuniy bosqichi tartib-qoidalari haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmagan, 7 ta holatda esa, u yerdagilarning ba‘zilari jarayonni to‘liq kuzatishlariga yo‘l berilmadi. DIIHB SKM kuzatuvchilariga 8 ta holatda ma‘lumotlarni kiritish

⁹⁰ Masalan, USK a‘zolari tomonidan 25 ta holatda saylov byulletenlarining umumiy sonini aniqlay olmadi, 26 ta holatda esa saylov kuni saylovchilarga berilgan byulletenlarning umumiy soni aniqlanmadi; foydalanilmagan va buzilgan saylov byulletenlari 16 ta holatda hisobga olinmagan, 20 ta holatda esa bekor qilinmagan.

⁹¹ SKM kuzatuvchilari 13 ta USKda ovozlarni sanab chiqish jarayonida uni kuzatishga ruxsat berilmaganligi, 11 ta holatda esa USK bilan to‘liq hamkorlik qilish imkoni berilmagani haqida xabar berishdi.

⁹² 1990-yildagi [YXHT Kopengagen hujjatining](#) 7.4-bandida ishtirokchi-davlatlar ovozlar halollik bilan sanab chiqilishi va hisobot berishlarini ta‘minlashi kerakligi belgilangan.

jarayonini kuzatishga ruxsat berilmagani, 5 ta kuzatuvda esa USK a'zolari yetarli darajada hamkorlikni ta'minlamaganligi sababli, kuzatuvchilar u jarayonlarni to'laqonli kuzata olmadilar.

Markaziy saylov komissiyasi saylov kuni davomida matbuot anjumanlari orqali ovoz berish jarayoniga oid yangiliklarni e'lon qilib bordi va bu jarayonning shaffofligiga ko'maklashdi. Ushbu yangiliklarda saylovchilarning ishtiroki haqidagi ma'lumotlar va saylov uchastkalari yopilganidan keyin butun mamlakat bo'ylab saylovchilarning dastlabki ishtiroki 85 foizni tashkil etgani xabar qilingan. SKM kuzatuvchilari doimiy ravishda ovoz berishda qatnashgan saylovchilar soni va rasman e'lon qilingan saylovchilarning dastlabki ma'lumotlari o'rtasidagi tafovutni qayd etdilar.⁹³

***Ushbu hisobotning faqat ingliz tilidagi nusxasi rasmiy hujjat hisoblanadi.
Hujjatning norasmiy tarjimalari bilan o'zbek va rus tillarida tanishish mumkin.***

⁹³ DIIHB SKM kuzatuvchilari saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan saylovchilar soni, tegishli saylov uchastkasida ovoz berish tartiblari kuzatilgunga qadar ovoz berganlar soni va ovoz berish tartib-qoidalarini kuzatish davomida ovoz berganlar soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ma'lum qildi. Ushbu ma'lumotlarning statistik tahlili shuni ko'rsatadiki, ovoz berishda qatnashgan saylovchilar soni rasmiy ma'lumotlardan kam bo'lgan. Ko'pgina saylov uchastkalarida DIIHB kuzatuvchilariga hatto so'rov asosida ham saylovchilar ro'yxati bilan tanishishlariga ruxsat berilmagan. Saylovchilar ro'yxatini vizual tekshirishga ruxsat berilgan saylov uchastkalarida saylovchilar ro'yxatida kuzatilgan imzolar sonidan ko'ra, saylov uchastkasi xodimlari ma'lum qilgan ma'lumotlar ko'proq bo'ldi.

MISSIYA AXBOROTI VA MINNATDORCHILIK SO‘ZLARI

Toshkent shahri, 2023-yil 10-iyul – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining taklifiga binoan, 2023-yil 17-18-may kunlari DIHHB mandatiga muvofiq o‘tkazilgan Ehtiyojlarni baholash missiyasi tavsiyalariga muvofiq, 2023-yil 9-iyuldagi saylov jarayonini kuzatish uchun DIHHB o‘zining Saylovni kuzatish missiyasini yubordi. Saylovlar YXHT majburiyatlari va boshqa xalqaro majburiyatlar hamda demokratik saylovlar bo‘yicha standartlar hamda milliy qonunchilikka muvofiqligini aniqlash maqsadida DIHHBning mazkur baholashi o‘tkazildi.

DIHHB 2005-yilgi Xalqaro saylovlarni kuzatish tamoyillari deklaratsiyasini ma’qulladi. Mazkur Dastlabki natijalar va xulosalar to‘g‘risidagi bayonot saylov jarayoni yakunlangunga qadar e’lon qilinadi. Saylovning yakuniy bahosi ovozlarni sanash, yakunlash va natijalarni e’lon qilish kabi saylov jarayonining qolgan bosqichlari hamda saylov kunidan keyin yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan shikoyat yoki murojaatlarni ko‘rib chiqishga qisman bog‘liq bo‘ladi. DIHHBning saylov bo‘yicha keng qamrovli yakuniy hisoboti, jumladan, bu jarayondagi ehtimoliy takomillashuvlar bo‘yicha tavsiyalari saylov jarayoni yakunlangandan bir necha oy o‘tgach e’lon qilinadi.

Elchi Urshula Gatsek (Urszula Gacek) rahbarligidagi DIHHB SKM 7-iyundan o‘z ishini boshladi. Missiya Toshkentda faoliyat yurituvchi 11 nafar xalqaro ekspert va butun mamlakat bo‘ylab taqsimlangan 24 nafar uzoq muddatli kuzatuvchidan iborat asosiy guruhdan iborat. Saylov kuni 26 mamlakatdan 198 nafar kuzatuvchi jalb qilindi. Butun mamlakat bo‘ylab 95 saylov uchastkasida ochilish va 933 saylov uchastkasida ovoz berish jarayoni kuzatuvchilar tomonidan kuzatildi. Ovozlarni sanash jarayoni esa 87 saylov uchastkasida, yakunlash jarayoni esa 14 okrug saylov komissiyalarida kuzatib borildi.

Saylovni kuzatish missiyasi mamlakat hukumatiga saylovni kuzatishga taklif qilgani uchun hamda Markaziy saylov komissiyasi va Tashqi ishlar vazirligiga ko‘rsatgan yordami uchun minnatdorchilik bildiradi. Bu missiya boshqa davlat institutlari, siyosiy partiyalar hamda fuqarolik jamiyati tashkilotlari va xalqaro hamjamiyat vakillariga bu jarayondagi hamkorligi uchun o‘z minnatdorchiligini bildiradi.

Batafsil ma’lumot uchun:

- Urshula Gatsek (Urszula Gacek), DIHHB SKM rahbari, Toshkentdagi telefon raqami: +998 90 830 28 96;
- Katya Andrush (Katya Andrusz), DIHHB matbuot kotibi: (+48 609 522 266), yoki
- Kseniya Dashutsina, DIHHB Saylovlar bo‘yicha maslahatchisi, Varshavadagi telefon raqami: +48 603 793 786.

DIHHB SKM manzili:

Le Grande Plaza mehmonxonasi, 4-qavat

O‘zbekiston ovozi ko‘chasi 2-uy

100031, Toshkent, O‘zbekiston.

Tel: +998 90 830 29 12

Email: office@odihr.uz

Website: <https://www.osce.org/odihr/elections/uzbekistan/544495>